

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ҚОНУНЧИЛИК**  
**ТЎПЛАМИ**

**3-сон**  
**(1179)**  
**2025 йил**  
**январь**

*Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:*

*биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;*

*иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;*

*учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;*

*тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари эълон қилинади;*

*бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.*

**МУНДАРИЖА**

*Биринчи бўлим*

6. «Космик фаолият тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 13 январдаги ЎРҚ–1017-сон Қонуни

*Иккинчи бўлим*

7. «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатида қайта ишлаш занжирини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 16 январдаги ПФ–6-сон Фармони
8. «Пахта хом ашёсини етиштириш ва сотишда бозор механизмларини қўллашни изчил давом эттириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 17 январдаги ПФ–7-сон Фармони

9. «2025 йилда аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 17 январдаги ПҚ–12-сон қарори

*Бешинчи бўлим*

10. Ўзбекистон Республикаси иqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 27-dekabrda 214-son “Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan bino va inshootlarni kapital ta’mirlashni moliyalashtirish va manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruq, shuningdek unga o‘zgartirishlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025-йил 14-январда ро‘yxatdan o‘tkazildi, ро‘yxat raqami 1073-2*)
11. Ўзбекистон Республикаси Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 23-son va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024-yil 26-dekabrda 19-son “Ўзбекистон Республикаси uchun karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025-йил 14-январда ро‘yxatdan o‘tkazildi, ро‘yxat raqami 3597*)
12. Ўзбекистон Республикаси Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 26-dekabrda 321-B-12-son, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26-dekabrda 211-son hamda Soliq qo‘mitasining 2024-yil 24-dekabrda 2024-26-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qarori (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025-йил 15-январда ро‘yxatdan o‘tkazildi, ро‘yxat raqami 2342-12*)
13. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг 2024 йил 18 декабрдаги 17-сон, Миллий гвардиясининг 2024 йил 5 декабрдаги 30-сон, Фавқулodда вазиятлар вазирлигининг 2024 йил 9 декабрдаги 26-сон, Давлат хавфсизлик хизматининг 2024 йил 15 декабрдаги 19-сон, Ички ишлар вазирлигининг 2024 йил 7 декабрдаги 45-ққ-сон ва Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2024 йил 11 декабрдаги 17-сон “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида тинчлик ва уруш даврида тиббий кўрикдан ўтказишни ташкил этиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги қарори (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил 16 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3147-2*)
14. Ўзбекистон Республикаси kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 12-dekabrda 18-2024/B-son “Karantinga oid choralar amal qilishi davrida maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim muassasalarining faoliyati to‘xtatilganda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari

va umumta'lim muassasalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalariga yillik mehnat ta'tili berishning vaqtinchalik tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida”gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3227-1*)

15. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 12-dekabrda 19-2024/B-son “Karantinga oid choralar amal qilish davrida xodimlarni masofaviy ish usulida, moslashuvchan ish grafida yoki uyda ishlashga o'tkazishning vaqtinchalik tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida”gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3228-1*)
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 10-dekabrda 37/16-son “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida”gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 916-3*)
17. O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirining 2025-yil 4-yanvarda 276-mh-son “Pochta aloqasida frankirlash mashinasidan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2008-3*)
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 7-yanvarda K-3-son va Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 20-son “Metrologiya tekshiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tibbiyot uchun mo'ljallangan o'lchash vositalari va sinash vositalarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorning 2-bandiga o'zgartirish kiritish haqida”gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2916-1*)
19. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 12-dekabrda 464-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3598*)
20. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 6 декабрдаги 200-сон “Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрини шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазири томонидан 2025 йил 17 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3599*)

21. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 3-yanvardagi 31-son "Alohida dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 17-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3600*)
22. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 24-dekabrda 17-2024/B-son "Ishga qabul qilish chog'ida tanlov o'tkazish to'g'risidagi namunaviy nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 17-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3451-1*)
23. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2024-yil 17-dekabrda 700-son "Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli itlarni umumiy bo'ysunuvchanlik va himoya-qorovul ko'nikmalari bo'yicha tayyorlash uchun pullik xizmatlar ko'rsatish, shuningdek naslchilik pitomnigida yetishtirilgan va ichki ishlar organlarining ehtiyojidan ortiq bo'lgan hamda xizmatga yaroqsiz deb topilgan itlarni sotish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyruqqa o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 17-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3480-1*)

Вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисидаги маълумот

## БИРИНЧИ БЎЛИМ

### ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ

## 6

#### Космик фаолият тўғрисида\*

Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил  
30 сентябрда қабул қилинган

Сенат томонидан 2024 йил 21 декабрда  
маъқулланган

#### 1-боб. Умумий қоидалар

##### 1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади

Ушбу Қонуннинг мақсади космик фаолият соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

##### 2-модда. Космик фаолият тўғрисидаги қонунчилик

Космик фаолият тўғрисидаги қонунчилик ушбу Қонун ва бошқа қонунчилик ҳужжатларидан иборатдир.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг космик фаолият тўғрисидаги қонунчилигида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

##### 3-модда. Асосий тушунчалар

Ушбу Қонунда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

**ер усти космик инфратузилмаси объектлари** — космик фаолиятни амалга оширишда фойдаланиладиган ер усти иншоотлари, бинолари ва техникалари;

**Ерни масофадан зондлаш** — космик аппаратларга ва бошқа қурилмаларга (самолёт, вертолёт, учувчисиз учиш аппаратлари ва бошқаларга) ўрнатилган ускуналар орқали ер устидаги ва ер қаъридаги объектлар тўғрисидаги маълумотларни олиш жараёни;

**Ерни масофадан зондлаш миллий оператори** (бундан буён матнда Миллий оператор деб юритилади) — космик тизимларни бошқариш ва (ёки) улардан фойдаланиш бўйича фаолиятни амалга оширадиган, космик фаолият соҳасидаги махсус ваколатли давлат органи томонидан белгиланадиган юридик шахс;

\* Ушбу Қонун «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 15 январда эълон қилинган.

**космик аппарат** — космик фазони ва Ерни тадқиқ этиш имконини берадиган, космик фазога учириш учун мўлжалланган техник қурилма, шу жумладан сунъий йўлдош аппарати;

**космик мониторинг** — космик хизматларнинг космик мониторинг объектлари ҳолатини космик аппаратлар ёрдамида олинган космик суратларга, шунингдек бошқа қўшимча маълумотларга ишлов бериш ҳамда уларни таҳлил қилиш орқали ўрганишга қаратилган таркибий қисми;

**космик объект** — космик фазода ишлаш учун мўлжалланган техник қурилма, шу жумладан космик аппарат ва (ёки) уни космик фазога олиб чиқиш воситаси ҳамда уларнинг таркибий қисмлари;

**космик сурат** — космик аппаратларга ўрнатилган махсус қурилмалар ёрдамида электромагнит спектрининг турли диапазонларида олинган ва маълум бир алгоритм бўйича визуаллаштириладиган икки ўлчовли тасвир;

**космик технологиялар** — космик фаолиятни амалга ошириш, шунингдек ушбу фаолият натижаларини олиш ва улардан фойдаланиш учун зарур бўлган ахборотни ва (ёки) маълумотларни тўплаш, сақлаш, излаш, уларга ишлов бериш ҳамда уларни тарқатиш учун фойдаланиладиган услублар, қурилмалар, воситалар, усуллар ва жараёнлар мажмуи;

**космик тизим** — космик фазони ва Ерни тадқиқ этиш ҳамда унинг натижаларидан фойдаланиш учун мўлжалланган, космик объектларни ва ер усти космик инфратузилмаси объектларини ўз ичига оладиган, функционал жиҳатдан ўзаро боғлиқ бўлган техник воситалар ҳамда амалий ишлар мажмуи;

**космик фазо** — Ер атмосферасидан ташқаридаги ҳаво ҳудудини ўзининг табиий хусусиятига кўра ўраб турадиган, космик объектлар ўз функционал вазибаларини амалга ошира оладиган фазо;

**космик фаолият** — илм-фан, ижтимоий-иқтисодий, экологияга, ахборотга, тижоратга, муҳофаага, хавфсизликка оид мақсадларга ва бошқа соҳаларга оид мақсадларга эришиш учун космик технологиялар воситасида космик фазони ва Ерни тадқиқ этишга ҳамда улардан фойдаланишга қаратилган фаолият;

**космик фаолият объектлари** — космик фаолиятни амалга оширишда фойдаланиладиган космик инфратузилма объектлари;

**космик фаолият субъектлари** — космик фаолиятни амалга оширувчи юридик шахслар, шу жумладан ушбу Қонунга ҳамда Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси ҳудудида космик фаолиятни амалга оширувчи халқаро ташкилотлар;

**космик хизматлар** — космик маълумотлардан, космик ва рақамли технологиялардан иборат бўлган геоахборот тизимларидан фойдаланган ҳолда, шу жумладан космик мониторинг орқали кўрсатиладиган хизматлар.

#### **4-модда. Космик фаолиятнинг асосий принциплари**

Космик фаолиятнинг асосий принциплари қуйидагилардан иборат:  
мамлакатнинг илмий-техник салоҳиятидан ва космик фаолият имкониятларидан самарали фойдаланиш;

космик технологиялардан фойдаланган ҳолда соҳаларнинг рақамлаштирилиш даражасини ҳамда шаффофлигини оширишга кўмаклашиш;

тенг ҳуқуқлилиқ ва ўзаро манфаатдорлик асосида халқаро ҳамкорликни амалга ошириш;

космик фаолиятни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини қўллаб-қувватлаш ва уни рағбатлантириш;

космик фаолиятни амалга оширишда экологик талабларга, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар талабларига ва аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталигини таъминлашга доир талабларга риоя этилиши устуворлиги.

### **5-модда. Космик фаолиятни амалга оширишнинг асосий мақсадлари**

Космик фаолиятни амалга оширишнинг асосий мақсадлари қуйидагилардан иборат:

Ўзбекистон Республикасининг барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишига, мудофаа қобилиятини ва хавфсизлигини мустаҳкамлашга кўмаклашиш;

Ерни, космик фазони ва самовий жисмларни тадқиқ этиш, шунингдек улар тўғрисидаги илмий билимларни тўплаш ва ривожлантириш;

космик технологиялар ёрдамида соҳаларнинг рақамлаштирилишини жадаллаштириш;

илмий, ижтимоий-иқтисодий, экологияга, тижоратга оид соҳалар ва бошқа соҳаларнинг манфаатларини кўзлаган ҳолда мамлакат ҳудудини космик технологиялар ёрдамида тадқиқ этиш;

космик фаолият соҳасида космик хизматлар кўрсатиш;

иқлим ўзгаришининг олдини олиш ва унинг таъсирини юмшатиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси ҳудудини доимий равишда мониторинг қилиб боришга кўмаклашиш;

космик фаолият соҳасидаги халқаро ҳамкорликни ривожлантириш.

### **2-боб. Космик фаолият соҳасини давлат томонидан тартибга солиш**

#### **6-модда. Космик фаолият соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари**

Космик фаолият соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат:

космик фаолият соҳасидаги ягона давлат сиёсатини ва стратегик йўналишларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш;

космик фазони ва сайёраларни тинчлик мақсадларида тадқиқ этиш ҳамда космик технологиялардан фойдаланиш бўйича халқаро ҳамкорликда иштирок этиш;

мамлакатни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан барқарор ривожлантириш, шунингдек унинг мудофаасини ва хавфсизлигини мустаҳкамлаш мақсадида

космик фаолият натижаларидан фойдаланиш, космик объектларни яратиш ва (ёки) учираш;

космик хизматларнинг миллий бозорини яратиш ва ривожлантириш;

космик фаолият тўғрисидаги қонунчиликни такомиллаштириш бўйича таклифлар тайёрлаш, шу жумладан норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва космик фаолият тўғрисидаги қонунчиликка риоя этилиши устидан давлат назоратини амалга ошириш;

космик инфратузилмани, космик тадқиқотлар ва технологияларни, илмий-тадқиқот ҳамда тажриба-конструкторлик ишларини ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

таълим ташкилотларида, шу жумладан етакчи хорижий таълим ташкилотларида космик фаолият йўналишлари бўйича кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш;

ижтимоий-иқтисодий соҳаларда фаолиятни амалга оширувчи вазирликлар ва идораларнинг зиммасига юклатилган вазифаларни бажариш самардорлигини Ерни масофадан зондлашдан, геоахборот тизимларидан, космик ва рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда оширишга қўмаклашиш;

ўз бўйсунувида Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг таркибига кирадиган ҳарбий тузилмаларга эга бўлган вазирликлар ва идораларга мамлакатнинг муҳофаза қилиниши мустаҳкамлаш ҳамда хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ махсус топшириқлар ва вазифаларни бажаришда геоахборот тизимларидан, космик ва рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда амалий ёрдам кўрсатиш;

иқтисодиётнинг тармоқларидаги қонунчилик бузилиши ҳолларини космик суратларга ишлов бериш ва уларни таҳлил қилиш орқали аниқлашга қўмаклашиш;

космик фаолият соҳасидаги давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

вазирликлар ва идоралар томонидан фаолиятнинг тегишли соҳаларида амалга ошириладиган мониторинг жараёнларида космик технологияларни қўллашга доир таклифларни ишлаб чиқиш ва ишларни мувофиқлаштириш;

тармоқларда вазирликлар ва идоралар томонидан космик технологияларнинг қўлланилиш даражасини мониторинг қилиш ҳамда уларнинг жорий этилишини жадаллаштириш;

космик фаолиятни оммалаштиришга доир ишларни илм-фан ва инновацион технологиялардан фойдаланган ҳолда ташкил этиш;

геоахборот маълумотлар базасини тўлдириш ва янгилаб бориш.

### **7-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг космик фаолият соҳасидаги ваколатлари**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

космик фаолият соҳасидаги ягона давлат сиёсати амалга оширилишини таъминлайди;

космик фаолият соҳасидаги давлат дастурларини тасдиқлайди ва уларнинг амалга оширилишини таъминлайди;



космик фаолият соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ўз ваколатлари доирасида қабул қилади;

фойдаланишдан чиқарилган космик объектларни ва техник воситаларни утилизация қилиш тартибини белгилайди;

космик фаолиятни амалга ошириш тартибини белгилайди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

**8-модда. Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Космик тадқиқотлар ва технологиялар агентлигининг космик фаолият соҳасидаги ваколатлари**

Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Космик тадқиқотлар ва технологиялар агентлиги космик фаолият соҳасидаги махсус ваколатли давлат органидир (бундан буён матнда махсус ваколатли давлат органи деб юритилади).

Махсус ваколатли давлат органи:

космик тадқиқотлар ва технологиялар соҳасидаги ягона давлат сиёсатини амалга оширишда ҳамда стратегик йўналишларни ишлаб чиқишда Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлигига кўмаклашади;

космик фаолият тўғрисидаги қонунчиликни такомиллаштириш бўйича таклифлар тайёрлайди ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқади;

космик инфратузилмани, космик тадқиқотларни ва технологияларни, илмий-тадқиқот ҳамда тажриба-конструкторлик ишларини ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқади ва амалга оширади;

таълим ташкилотларида, шу жумладан етакчи хорижий таълим ташкилотларида космик фаолиятнинг йўналишлари бўйича кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этади;

ижтимоий-иқтисодий соҳаларда фаолиятни амалга оширувчи вазирликлар ва идораларнинг зиммасига юклатилган вазифаларни бажариш самардорлигини Ерни масофадан зондлашдан, геоахборот тизимларидан, космик ва рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда оширишга кўмаклашади;

ўз бўйсунувида Ўзбекистон Республикаси Қуроли Кучларининг таркибига кирадиган ҳарбий тузилмаларга эга бўлган вазирликлар ва идораларга мамлакатнинг мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш ҳамда хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ махсус топшириқлар ва вазифаларни бажаришда геоахборот тизимларидан, космик ҳамда рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда амалий ёрдам кўрсатади;

космик мониторинг объектларида космик мониторинг, шу жумладан давлат космик мониторинги амалга оширилишини таъминлайди;

тармоққа мансублилиги бўйича вазирликлар ва идоралар томонидан амалга ошириладиган мониторинг жараёнларида космик технологияларни қўллашга доир таклифларни ишлаб чиқади ва ишларни мувофиқлаштиради;

тармоқларда вазирликлар ва идоралар томонидан космик технологиялар-

нинг қўлланилиш даражасини мониторинг қилади ва уларнинг жорий этилишини жадаллаштиради;

космик фаолиятни оммалаштириш бўйича ишларни илм-фан ва инновацион технологиялардан фойдаланган ҳолда ташкил этади;

космик фаолиятни амалга ошириш чоғида кузатишларни олиб боради, олинган маълумотларни тўплайди, уларга ишлов беради, уларни таҳлил қилади, сақлайди ва улардан фойдаланади;

космик фаолият соҳасида халқаро ҳамкорликни амалга оширади, шунингдек космик фазони тадқиқ этиш ва ундан фойдаланиш билан боғлиқ халқаро-ҳуқуқий масалаларни ҳал қилишга кўмаклашади ҳамда халқаро мажбуриятларнинг бажарилишини таъминлайди;

космик суратларни қабул қилиш, уларга ишлов бериш ва уларни тарқатиш тартибини ишлаб чиқади ҳамда амалга оширади;

космик фазога учириладиган Ўзбекистон Республикасининг космик объектларини халқаро стандартларга ва қонунчиликка мувофиқ тамғалашни амалга оширади;

ҳарбий мақсадга ва икки хил мақсадга мўлжалланган космик технологияларни ишлаб чиқишга, ишлаб чиқаришга ва етказиб беришга ҳамда космик инфратузилма объектларини ривожлантиришга доир давлат мудофаа буюртмасини Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги билан биргаликда шакллантиради;

икки хил мақсадга мўлжалланган космик технологияларни ривожлантиришнинг асосий йўналишларини Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги билан биргаликда белгилайди ва тегишли тадқиқотларни ташкил этади;

космик фаолият соҳасидаги дастурларни ишлаб чиқади ва амалга оширади;

космик фаолият соҳасидаги давлат назоратини амалга оширади;

Миллий операторни белгилайди.

Махсус ваколатли давлат органи қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

### **9-модда. Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлигининг космик фаолият соҳасидаги ваколатлари**

Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги:

космик фаолият, космик тадқиқотлар ва технологиялар соҳасида ягона давлат сиёсатини амалга оширади ҳамда стратегик йўналишларни ишлаб чиқади, шунингдек махсус ваколатли давлат органининг фаолиятини мувофиқлаштиради;

космик фаолият соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг ишлаб чиқилиши ва тасдиқланишини ташкил этади;

Ўзбекистон Республикасида космик фаолият соҳасидаги дастурлар ишлаб чиқилиши ва амалга оширилишини мувофиқлаштиради;

халқаро ҳамкорлик доирасида махсус ваколатли давлат органи билан биргаликда Ўзбекистон Республикасининг космик фаолият соҳасидаги ман-

фаатларини ифода этади ва амалга ошириладиган ишларни мувофиқлашти-  
ради;

космик фаолият соҳасидаги давлат назоратини амалга ошириш бўйича  
ишларни мувофиқлаштиради ва ушбу йўналишни такомиллаштириш юзаси-  
дан таклифлар ишлаб чиқади;

вазирликлар ва идораларнинг космик фаолият соҳасидаги фаолиятини  
мувофиқлаштиради.

### **10-модда. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг космик фаолият соҳасидаги ваколатлари**

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги мамлакат мудофааси ва  
хавфсизлиги манфаатларини кўзлаган ҳолда, космик фаолият имкониятлари-  
дан фойдаланади, шунингдек ҳарбий космик технологияларни яратиш бўйича  
ишларни ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги:

ҳарбий мақсадга мўлжалланган космик технологияларни ҳамда махсус  
ваколатли давлат органи билан биргаликда икки хил мақсадга мўлжалланган  
космик технологияларни яратиш бўйича ишларни ташкил этади;

мамлакат мудофааси ва хавфсизлиги манфаатларини кўзлаган ҳолда,  
космик технологиялардан фойдаланишни режалаштиради ва амалга оширади;

қўлланилиши космик фаолият билан боғлиқ бўлган қурол-яроғ, ҳарбий  
ва махсус техникани яратишга, ишлаб чиқаришга ва етказиб беришга доир  
давлат мудофаа буюртмасини шакллантиришни амалга оширади;

ҳарбий мақсадга мўлжалланган космик технологияларни ҳамда махсус  
ваколатли давлат органи билан биргаликда икки хил мақсадга мўлжалланган  
космик технологияларни яратиш бўйича илмий-тадқиқот ва тажриба-конс-  
трукторлик ишлари амалга оширилишини таъминлайди;

ҳарбий мақсадга мўлжалланган космик технологияларни ҳамда махсус  
ваколатли давлат органи билан биргаликда икки хил мақсадга мўлжалланган  
космик технологияларни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари ва истиқ-  
болларини белгилаш бўйича тизимли тадқиқотларни ташкил этади;

ҳарбий мақсадга мўлжалланган космик технологияларнинг синондан ўт-  
казилишини махсус ваколатли давлат органи ҳамда бошқа манфаатдор ва-  
зирликлар ва идоралар билан биргаликда ташкил этади;

мамлакат мудофааси ва хавфсизлиги манфаатларини кўзлаган ҳолда,  
космик фаолият соҳасидаги давлат сиёсати бўйича таклифлар тайёрлайди;

Ўзбекистон Республикасининг халқаро космик лойиҳалари ва дастурла-  
рини амалга оширишда махсус ваколатли давлат органи ҳамда бошқа ман-  
фаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда иштирок этади;

космик технологияларнинг ҳарбий мақсадларга мувофиқлиги тўғрисида-  
ги хулосани тайёрлайди ва махсус ваколатли давлат органига тақдим этади;

мамлакат мудофааси ва хавфсизлиги манфаатларини кўзлаган ҳолда, кос-  
мик фаолият соҳасидаги истиқболли йўналишларни ривожлантиришга доир  
таклифларни ишлаб чиқади ва махсус ваколатли давлат органига киритади.

**3-боб. Космик фаолиятни ташкил этиш****11-модда. Космик фаолият соҳасида илмий тадқиқотлар олиб бориш**

Космик фаолият соҳасидаги илмий тадқиқотлар космик фаолиятнинг илмий жиҳатдан кузатиб борилишини таъминлашни, космик технологияларнинг янги намуналарини ишлаб чиқишни, космик технологияларни ривожлантиришга, жорий этишга ва улардан фойдаланишга йўналтирилган космик синовларни, фундаментал ва илмий-амалий тадқиқотларни ўз ичига олади.

Космик фаолият соҳасидаги илмий тадқиқотлар илмий ва илмий-техникавий лойиҳалар доирасида амалга оширилади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси томонидан мувофиқлаштирилади.

Космик тизимларни яратиш бўйича лойиҳалар илмий тадқиқотларни, ишланмаларни ҳамда космик фаолият объектларини ва уларнинг таркибий қисмларини илмий жиҳатдан ишлаб чиқиш, лойиҳалаштириш, ишлаб чиқариш, ўрнатиш, қуриш, синовдан ўтказиш, шунингдек улардан фойдаланиш жараёнларини ўз ичига олади.

Космик фаолият соҳасидаги илмий ва илмий-техникавий лойиҳалар ҳамда космик тизимларни яратиш бўйича лойиҳалар олимларни, юқори маънавияли мутахассисларни, жамоат ташкилотларини, Ўзбекистон Республикасининг олий таълим ташкилотларини, шунингдек халқаро экспертларни ва чет давлатларнинг олимларини жалб этган ҳолда амалга оширилади.

**12-модда. Космик тизимларнинг турлари**

Қуйидагилар космик тизимларнинг турлари жумласига киради:

Erни масофадан зондлаш;

космик мониторинг;

давлат космик мониторинги;

космик алоқа тизими;

юқори аниқликдаги сунъий йўлдош навигация тизими;

космик тизимларнинг илмий, иқтисодий, экологияга, ахборотга ва тижоратга оид мақсадларда, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига мувофиқ яратилган бошқа турлари.

**13-модда. Erни масофадан зондлаш**

Миллий оператор илмий, ижтимоий-иқтисодий, экологияга, ахборотга, тижоратга оид мақсадларда, шунингдек мамлакат муҳофаази ва хавфсизлиги эҳтиёжлари учун Erни масофадан зондлаш маълумотларини олишни режалаштириш, олиш, уларга ишлов беришни, уларни сақлаш ва тарқатишни амалга оширади.

Зарурат бўлганда Миллий оператор Erни масофадан зондлашга доир маълумотларни вазирликлар ҳамда идораларга, шунингдек юридик ва жисмоний шахсларга тақдим этади.

**14-модда. Космик мониторинг**

Космик мониторинг Миллий оператор томонидан маҳаллий ва (ёки) хорижий космик аппаратлар ва технологиялар воситасида амалга оширилади.

Қонунчиликка мувофиқ мулкчилик шакли, ҳуқуқий режими ва хусусиятидан қатъи назар, ер усти, космик фазо ва уларда жойлашган барча объектлар, шунингдек табиий ва техноген хусусиятли ҳодисалар космик мониторинг объектлари деб ҳисобланади.

Космик мониторинг вазирликлар ва идораларга, шунингдек юридик ва jisмоний шахсларга космик хизматлар кўрсатиш мақсадида амалга оширилади.

Космик мониторинг қўйидаги тартибда амалга оширилади:

вазирликлар ва идоралар келгуси йил учун космик хизматларга, жумладан ушбу хизматларнинг ҳажми, даврийлиги ва уларни тақдим этиш муддатлари ҳақидаги, шу жумладан космик мониторингга бўлган эҳтиёж тўғрисидаги маълумотларни (шундай эҳтиёж мавжуд бўлганда) ҳар йили 20 июлга қадар махсус ваколатли давлат органига тақдим этади;

махсус ваколатли давлат органи тақдим этилган маълумотлар асосида эҳтиёжларни ўрганади ва мақбуллаштиради ҳамда келгуси йилнинг охирига қадар космик хизматлар кўрсатилишини ташкил этади.

**15-модда. Давлат космик мониторинги**

Давлат космик мониторинги космик мониторинг объектларида содир бўлаётган жараёнлар ва ўзгаришлар тамойилларини давлат манфаатларини кўзлаган, космик технологиялардан фойдаланган ҳолда ўрганишдан, шу жумладан Ерни масофадан зондлаш маълумотларига ва бошқа маълумотларга ишлов беришдан ҳамда уларни таҳлил қилишдан, шунингдек қонунчиликнинг бузилиши ҳолларини аниқлашга кўмаклашишдан иборатдир.

Давлат космик мониторинги фақат Миллий оператор томонидан амалга оширилади ва махсус ваколатли давлат органи томонидан мувофиқлаштирилади.

Давлат космик мониторинги ушбу модданинг тўртинчи — саккизинчи қисмларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

Махсус ваколатли давлат органи давлат космик мониторингини амалга ошириш мақсадида зарур бирламчи маълумотларни тегишли вазирликлар ва идоралардан сўраб олади ҳамда уларни Миллий операторга узатади.

Миллий оператор давлат космик мониторингини амалга оширади ва тақдим этилган маълумотлар билан солиштириб, космик мониторинг объектларида содир бўлаётган жараёнлар ва ўзгаришлар тамойилларини аниқлайди.

Миллий оператор давлат космик мониторинги натижалари асосида тегишли маълумотларни тайёрлайди ва махсус ваколатли давлат органига тақдим этади.

Махсус ваколатли давлат органи Миллий оператор томонидан тақдим этилган маълумотларни таҳлил қилади ва мувофиқлаштиради, ахборот-таҳлилий маълумотномани тайёрлайди ҳамда тегишли вазирликлар ва идораларга тақдим

этади, шунингдек ушбу маълумотнома асосида вазирликлар ва идоралар томонидан кўрилган чоралар тўғрисидаги ахборотни сўров бўйича олади.

Махсус ваколатли давлат органи давлат космик мониторингининг натижадорлиги тўғрисидаги ахборотни Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига киритади.

#### **16-модда. Космик алоқа тизими**

Космик алоқа тизими маълумотлар, аудио- ва видеосигналлар ҳамда бошқа турдаги ахборотни космик аппаратлар орқали узатишни таъминлаш учун мўлжалланган космик ва ердаги компонентлар мажмуидан иборатдир.

Космик алоқа тизими юридик ва (ёки) жисмоний шахсларнинг космик аппаратлар транспондерларига бўлган эҳтиёжларини таъминлаш учун мўлжаллангандир.

Космик аппаратлар транспондери деганда сигналларни қабул қилиш, кучайтириш ва қайта узатиш учун мўлжалланган электрон қурилма тушунилади.

#### **17-модда. Юқори аниқликдаги сунъий йўлдош навигация тизими**

Юқори аниқликдаги сунъий йўлдош навигация тизими деганда космик аппаратларнинг сигналлари ёрдамида космик фазо ва Ердаги объектларнинг координаталари, тезлиги ва вақтини аниқ белгилашни таъминлаш учун мўлжалланган техника воситалари, дастурий таъминот ва амалий ишлар мажмуи тушунилади.

Юқори аниқликдаги сунъий йўлдош навигация тизимидан космик фазодаги ва Ердаги объектларнинг жойлашувини ҳамда ҳаракатини юқори даражадаги аниқлик ва ишончлилик билан аниқлаш ҳамда кузатиш учун фойдаланилади.

#### **18-модда. Космик ракета комплексларидан (космодромлардан) фойдаланиш**

Космик ракета комплексларидан (космодромлардан) космик объектларни космик фазога олиб чиқиш учун фойдаланилади.

Космик объектларни космик ракета комплексларидан (космодромлардан) фойдаланган ҳолда космик фазога учуриш Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорига асосан амалга оширилади.

#### **19-модда. Космик фаолиятни лицензиялаш**

Космик технологияларни қўлловчи ташкилотларнинг фаолиятини лицензиялаш «Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ амалга оширилади.

#### **20-модда. Космик тизимларни яратиш**

Космик тизимларни яратиш илмий-тадқиқот ва тажриба-конструктор-

лик ишларини, космик тизимларни ҳамда уларнинг таркибий қисмларини лойиҳалаштиришни, ишлаб чиқаришни, ўрнатишни, қуришни ва синовдан ўтказишни, шунингдек уларни фойдаланишга топширишни ўз ичига олади.

**21-модда. Ўзбекистон Республикасининг космик объектларини тамғалаш**

Ўзбекистон Республикасининг космик фазога учирилган космик объектлари халқаро стандартларга ва Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ махсус ваколатли давлат органи томонидан белгиланган тамғага эга бўлиши керак.

**22-модда. Космик объектларни ва техника воситаларини утилизация қилиш**

Космик фаолиятни амалга оширувчи юридик шахслар космик объектларни ва техника воситаларини утилизация қилиш учун утилизация қилиниши лозим бўлган космик объектларнинг ва техника воситаларининг рўйхатини махсус ваколатли давлат органига тақдим этади.

Космик объектларни ва техника воситаларини утилизация қилиш танланган технологияларга ҳамда иқтисодий мақсадга мувофиқлигига қараб, улардан фойдаланиш (уларни сақлаш) жойида ёки космик объектларни ва техника воситаларини утилизация қилиш билан шуғулланувчи ихтисослаштирилган ташкилотларда амалга оширилади.

Космик объектларни ва техника воситаларини утилизация қилишга доир ишлар, экология, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар, ўлчовларнинг бир хиллигини таъминлаш ва аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталигини таъминлаш соҳасидаги талабларга риоя этилган ҳолда амалга оширилади.

Фойдаланишдан чиқарилган космик объектларни ва техника воситаларини утилизация қилиш тартиби халқаро шартномаларга мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

**23-модда. Космик фаолият объектларини ижарага бериш**

Космик фаолият объектларини космик фаолият субъектларига ижарага бериш, агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларида бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик ҳужжатлари билан тартибга солинади.

**4-боб. Космик инфратузилма**

**24-модда. Ўзбекистон Республикасининг космик инфратузилма объектлари**

Ўзбекистон Республикасининг космик инфратузилма объектлари космик фаолиятнинг асосини ташкил этади ва қуйидагиларни ўз ичига олади:  
ер усти космик инфратузилмаси объектларини;

космик объектларни.

Ўзбекистон Республикасининг космик инфратузилма объектлари муҳим стратегик аҳамиятга эга объектлардир.

### **25-модда. Ер усти космик инфратузилмаси объектлари**

Ер усти космик инфратузилмаси объектлари жумласига қуйидагилар кирди:

илмий-техник ва тажриба-экспериментал космик тадқиқотлар базаси;  
космик фаолиятни амалга ошириш учун мўлжалланган космик технологиялар ва космик ракета комплексларини ишлаб чиқариш воситалари;

космодромлар;

космик ракеталардан ажралиб чиқувчи қисмларнинг қулаш ҳудудлари;

космик объектларни ердан бошқариш комплекслари;

космик объектлардан маълумотларни олиш, уларга ишлов бериш ва уларни тарқатиш учун мўлжалланган ер усти мажмуалари;

космик фаолиятда фойдаланиладиган бошқа ер усти иншоотлари ва техника воситалари.

Ер усти космик инфратузилмасининг хавфсизлигини ва ундан хавфсиз фойдаланилишини таъминлаш учун қўриқланадиган ер участкалари ташкил этилади.

## **5-боб. Космик фаолият хавфсизлиги**

### **26-модда. Космик фаолият хавфсизлигини таъминлаш**

Космик фаолият одамларнинг соғлиғи сақланишини, атроф-муҳит муҳофаза қилинишини ҳамда юридик ёки жисмоний шахсларнинг мол-мулки ҳимоя қилинишини таъминлаш шарти билан амалга оширилади.

Космик фаолият хавфсизлиги белгиланган хавфсизлик қоидаларига мувофиқ махсус ваколатли давлат органи, шунингдек тегишли тармоқлардаги ваколатли органлар томонидан таъминланади.

Космик фаолият натижасида жисмоний шахсларнинг соғлиғига, атроф-муҳитга, юридик ёки жисмоний шахсларнинг мол-мулкига, шунингдек давлатнинг мулкига етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш ихтиёрий равишда ёки суднинг қарорига кўра амалга оширилади.

Фуқаро жароҳат олганда ёки соғлиғи бошқача тарзда шикастланганда унга у оладиган ёки бирор-бир тарзда олиши мумкин бўлган, йўқотилган иш ҳақи (даромади), шунингдек соғлиғига шикаст етказилганлиги билан боғлиқ қўшимча харажатлар, шу жумладан даволаниш, қўшимча овқатланиш, дори-дармонлар сотиб олиш, протезлар ўрнатиш, уни парваришлаш, санаторийда даволаниш, махсус транспорт воситасини сотиб олиш ҳамда бошқа касбга тайёрланиши харажатлари, агар жабрланувчининг ушбу ёрдам ва парваришлаш турларига муҳтожлиги ҳамда уларни бепул олиш ҳуқуқига эга эмаслиги аниқланса, компенсация қилиниши керак.

Космик объект учирилгунига қадар космик фаолият субъектлари экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши соҳасидаги вако-



латли давлат органига ракетадан ажралиб чиқувчи қисмларнинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудига қулаш жойлари координаталарини юбориши шарт.

Космик объект учирлиши натижасида одамлар ёки ҳайвонлар ҳалок бўлган, шунингдек фуқароларга ва атроф-муҳитга зарар етказилган тақдирда, космик фаолият субъектлари етказилган зарарнинг ўрнини қонунчиликда белгиланган тартибда қоплаши шарт.

Чет эл юридик ёки жисмоний шахсларига тегишли бўлган космик объект космик фазога учирилганда ёки у Ерга қайтаётганда фақат махсус ваколатли давлат органи, Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳамда Фавқулодда вазиятлар вазирлиги билан олдиндан келишилганидан кейин Ўзбекистон Республикасининг ҳаво ҳудуди орқали хавфсиз учиб ўтиши мумкин.

**27-модда. Космик фаолиятни амалга ошириш натижасида рўй берган фавқулодда вазиятларни бартараф этиш**

Космик фаолиятни амалга ошириш натижасида рўй берган фавқулодда вазиятларни бартараф этиш «Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ амалга оширилади.

**28-модда. Космик фаолият таъсир қилган ҳудудларда атроф-муҳитнинг ва аҳоли соғлигининг ҳолатини экологик назорат қилиш**

Космик фаолиятнинг атроф-муҳитга, табиий ресурсларга ва аҳоли соғлиғига таъсирини назорат қилиш экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши ҳамда соғлиқни сақлаш соҳасидаги ваколатли давлат органлари томонидан амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида космик фаолиятни амалга ошириш чоғида атроф-муҳитни муҳофаза қилиш билан боғлиқ фавқулодда вазият юзага келиши хавфи тўғрисида ёки фавқулодда вазият юзага келганлиги ҳақида аҳолини хабардор қилиш аҳолига хабар бериш ва уни хабардор қилишнинг автоматлаштирилган тизими, шунингдек оммавий ахборот воситалари орқали амалга оширилади.

**29-модда. Космик фаолиятни амалга оширишдаги чекловлар**

Космик фаолиятни амалга оширишда қуйидагилар тақиқланади:  
одамларнинг ҳаёти ва соғлиғига бевосита таҳдидни юзага келтириш;  
оммавий қирғин қуролини космик фазога чиқариш, жойлаштириш ёки синовдан ўтказиш;

атроф-муҳитга салбий таъсир кўрсатиш учун космик технологиялардан ва (ёки) самовий жисмлардан фойдаланиш;

космик фазони ифлослантиришнинг олдини олишга доир халқаро нормалар ва стандартларни бузиш.

**6-боб. Якунловчи қоидалар****30-модда. Космик фаолиятни молиялаштириш**

Космик фаолиятни молиялаштириш Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари, бюджетдан ташқари жамғармалар, шунингдек Космик тармоқни ривожлантириш жамғармаси ва Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Рақамли технологияларни ривожлантириш жамғармаси маблағлари, шунингдек қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга оширилади.

**31-модда. Космик фаолият соҳасидаги халқаро ҳамкорлик**

Ўзбекистон Республикасининг космик фаолият соҳасидаги халқаро ҳамкорлиги халқаро ҳуқуқнинг умумэтироф этилган принциплари ва нормаларига риоя қилиш асосида амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги халқаро космик фаолият билан боғлиқ муносабатлар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари, ушбу Қонун ва Ўзбекистон Республикасининг бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари билан тартибга солинади.

Космик фаолият соҳасидаги халқаро космик хизматлар учун ҳақ тўлаш тартиби халқаро шартномалар асосида, халқаро космик ташкилотлар ва Халқаро электралоқа иттифоқининг тавсиялари инобатга олинган ҳолда белгиланади.

Ўзбекистон Республикасининг космик фаолият соҳасидаги халқаро мажбуриятларининг бажарилишини таъминлаш махсус ваколатли давлат органи томонидан амалга оширилади.

**32-модда. Низоларни ҳал этиш**

Космик фаолият соҳасида юзага келадиган низолар қонунчиликда белгиланган тартибда ҳал этилади.

**33-модда. Космик фаолият тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик**

Космик фаолият тўғрисидаги қонунчиликни бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

**34-модда. «Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартириш киритиш**

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 14 июлда қабул қилинган «Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги ЎРҚ–701-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 7, 661-модда; 2022 йил, № 4, 340-модда, № 5, 465-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 185-модда, № 7, 533-модда, № 9, 710-модда, № 11, 921, 923-моддалар;

2024 йил, № 1, 5, 7-моддалар, № 2, 105, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819-модда, № 9, 957, 958-моддалар) **1-илова 41-позициясининг «Лицензиялаш соҳасидаги ваколатли органлар» устунидаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Космик тадқиқотлар ва технологиялар агентлиги» деган сўзлар «Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Космик тадқиқотлар ва технологиялар агентлиги» деган сўзлар билан алмаштирилсин.**

**35-модда. Ушбу Қонуннинг ижросини, етказилишини, моҳияти ва аҳамияти тушунтирилишини таъминлаш**

Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Космик тадқиқотлар ва технологиялар агентлиги ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

**36-модда. Қонунчиликни ушбу Қонунга мувофиқлаштириш**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ушбу Қонун 22-моддасининг тўртинчи қисмида назарда тутилган фойдаланишдан чиқарилган космик объектларни ва техника воситаларини утилизация қилиш тартибини ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ичида белгиласин;

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштиради;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

**37-модда. Ушбу Қонуннинг кучга кириши**

Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга кирилади.

**Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти**

**Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,  
2025 йил 13 январь,  
ЎРҚ–1017-сон

## ИККИНЧИ БЎЛИМ

### ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ

#### **7 Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатида қайта ишлаш занжирини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тад- бирлар тўғрисида**

Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатининг инвестицион жозибadorлигини ва рақобатбардошлигини янада ошириш, соҳанинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш, маҳаллий тўқимачилик маҳсулотларининг хорижий бозорларга кенгроқ кириб бориши учун шароитлар яратиш мақсадида:

1. 2025 — 2027 йилларда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатида қайта ишлаш занжирини ривожлантиришнинг асосий мақсадли кўрсаткичлари этиб қуйидагилар белгилансин:

маҳсулотлар экспортини 2025 йилда 4,0 миллиард АҚШ долларига, 2026 йилда 5,0 миллиард АҚШ долларига ва 2027 йилда 7,0 миллиард АҚШ долларига етказиш;

АҚШ ва Европа давлатлари бозорларига тайёр маҳсулотлар экспортини 500 миллион АҚШ долларига етказиш;

илфoр технологиялар ва замонавий дизайнерлик ишланмаларини кенг жорий қилиш ҳамда халқаро брендларни жалб қилиш орқали жами экспортда тайёр тикув-трикотаж маҳсулотлари улушини 70 фоизга етказиш;

ип-калавани чуқур қайта ишлашни янада ривожлантириш мақсадида 5,0 миллиард АҚШ доллари миқдорида хорижий инвестициялар ва кредитлар жалб қилиш.

2. Белгилансинки, тўқимачилик тармоғида қайта ишлашни чуқурлаштириш учун қулай молиявий шарт-шароитлар яратиш мақсадида қуйидаги қўллаб-қувватлаш механизмлари жорий этилади:

а) ип-калава ва матонинг экспорт йиғимидан (божидан) тушадиган маблағлар тўлиқ миқдорда Тармоқларни қўллаб-қувватлаш жамғармасига (кейинги ўринларда — Жамғарма) йўналтирилади;

б) Жамғарманинг ип-калава ва матонинг экспорт йиғимидан тушадиган маблағларининг 2025 йилда 15 миллион АҚШ доллари (2026 йилдан бошлаб камида 80 фоизи) ҳамда ишлаб чиқариш ускуналари харидини субсидиялаш учун назарда тутилган маблағлар ҳисобидан 15 миллион АҚШ доллар газлама, мато ва тайёр тикув-трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқариш лойиҳалари (кейинги ўринларда — Лойиҳалар) доирасида асбоб-ускуналар харид қилишни кредитлаш учун хорижий валютада тижорат банкларига йўналтирилади, шунингдек, зарур ҳолларда, Савдо-саноат палатаси ёки «Ўзтўқимачиликса-

ноат» уюшмаси томонидан Лойиҳаларда таъсисчи (иштирокчи) сифатида қатнашиш учун фойдаланилиши мумкин;

в) мазкур банднинг «б» кичик бандида назарда тутилган маблағлар ҳисобидан:

кредитлар тадбиркорлик субъектлари буюртмасига асосан асбоб-ускуна қийматининг 15 фоизи миқдорида бўнак (аванс) тўловларини молиялаштириш учун хорижий валютада йиллик 4 фоиз ставкада (шундан 2 фоиз банк маржаси) 7 йил муддатгача ажратилади. Бунда асбоб-ускуна қийматининг қолган қисмига тадбиркорлик субъекти томонидан тижорат банклари орқали маблағ жалб қилинади;

Савдо-саноат палатаси ёки «Ўзтўқимачиликсаноат» уюшмаси Лойиҳаларни амалга ошириш учун очилган махсус мақсадли корхонанинг (SPV) устав капиталига 25 фоиздан кўп бўлмаган миқдорда улушдор бўлиб киради ва 5 йил муддат ичида улушни баҳоланган қийматда сотган ҳолда Жамғармага қарзни хорижий валютада қайтаради. Бунда Лойиҳанинг техник-иқтисодий асослари бўйича «Лойиҳалар ва импорт контрактларини комплекс экспертиза қилиш маркази» ДУК ижобий хулосаси талаб этилади;

г) «Савдони ривожлантириш компанияси» АЖ (кейинги ўринларда — Компания) томонидан Савдога кўмаклашиш жамғармаси ҳисобидан корхоналарга халқаро («GOTS», «ОЕКО-ТЕХ», «BCI», «BSCI», «Organic Cotton», «SEDEX» ва шу каби) сертификатларни олиш билан боғлиқ харажатларни тўлаш учун бериладиган молиявий ёрдам миқдори доирасида мазкур сертификатларни олиш талабларига жавоб бериш учун амалга оширилган бошқа харажатлар ҳам қоплаб берилади.

3. Савдо-саноат палатаси маҳаллий маҳсулот ва брендларни халқаро «маркетплейс»ларда тарғиб қилиш, жойлаштириш ва реклама қилиш бўйича «Made in Uzbekistan» дастурини амалга оширсин. Бунда:

Дастур доирасида тармоқ корхоналари ходимларига «маркетплейс»лар билан ишлашни ўргатиш, уларнинг дастлабки маҳсулотларини «маркетплейс»ларда жойлаштиришда кўмаклашиш, маҳаллий брендларни яратиш ва илгари суриш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилади;

Дастурни амалга ошириш учун Компания томонидан Савдога кўмаклашиш жамғармаси ҳисобидан 2 миллион АҚШ доллари миқдорида маблағ йўналтиришга рухсат берилади.

4. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Савдо-саноат палатаси ҳамда Наманган вилояти ҳокимлиги билан биргаликда бир ой муддатда Наманган вилоятида 30 гектар ер майдонида махсус ҳуқуқий, солиқ, божхона, валюта режимлари ўрнатилган, чуқур қайта ишланган тайёр кийим-кечаклар ва уй текстили маҳсулотларини ишлаб чиқаришга ихтисослашган тўқимачилик махсус саноат зонасини (кейинги ўринларда — Саноат зонаси) ташкил этиш бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

Бунда Саноат зонасида божхона постини ташкил қилиш, товарларни эркин муомалага чиқарадиган корхоналар учун солиқ имтиёзларини нотенг қўллашга йўл қўймаслик назарда тутилсин ҳамда ишлаб чиқариш бинола-

рини хорижий давлатлар (Хитой, Корея, Туркия) тажрибаси асосида кўп қаватли (2-3 қават) қилиб қуриш инобатга олинсин.

5. Савдо-саноат палатасининг Компания хузурида масъулияти чекланган жамият шаклида устав фонди 10 миллиард сўм бўлган факторинг ташкилотини (кейинги ўринларда — Факторинг ташкилоти) ташкил этиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

6. Белгилансинки:

Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси Компанияга унинг буюртмасига асосан 5 йил муддатга 2028 йил 1 январдан қайтариш шарти билан йиллик 4 фоиз ставкада 100 миллион АҚШ доллари миқдоридида маблағ ажратади;

мазкур банднинг иккинчи хатбошисида назарда тутилган маблағлар Компания томонидан саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналарга қулай шартларда факторинг ва лизинг хизматлари ҳамда тўқимачилик саноати корхоналарига хомашё харид қилиш ва сотиш бўйича савдо операциялари учун молиявий хизматларни кўрсатишга йўналтирилади;

ажратиладиган мазкур маблағларни самарали бошқариш учун Компания хузурида алоҳида юридик шахслар ташкил этишга рухсат берилади;

Факторинг ташкилоти фаолиятини йўлга қўйиш учун малакали маҳаллий ва хорижий мутахассисларни жалб қилиш билан боғлиқ харажатлар Савдога қўмаклашиш жамғармаси маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади.

Бош вазир ўринбосари Ж.А. Ходжаев Савдо-саноат палатаси таклифларига кўра икки ой муддатда молиявий хизматларни кўрсатиш тартиби ва аниқ шартларини, шунингдек, молиявий хизматларнинг турлари бўйича маблағлар тақсмотини тасдиқласин.

7. Савдо-саноат палатаси:

мазкур Фармоннинг 6-бандида назарда тутилган молиявий хизматларнинг кенг жорий қилинишини;

Факторинг ташкилоти фаолиятига факторинг хизматларига оид юқори билим ва касбий маҳоратларга эга маҳаллий ва хорижий мутахассислар жалб қилинишини;

чораклик режа-графиклар асосида корхоналарнинг факторинг хизматларидан хабардорлигини ошириш ва факторингнинг афзалликлари юзасидан тушунтириш ишлари олиб борилишини таъминласин.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 январдаги «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж корхоналарида чуқур қайта ишлаш ва юқори қўшилган қийматли тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ҳамда уларнинг экспортини рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ–53-сон Фармонининг 3-банди «б» кичик бандида назарда тутилган пахта ип-калаваси экспорти йиғими бўйича қарздорликлар ундирилиб, мазкур маблағлар ҳисобидан қарздорлик шакланган йилда тайёр тикув-трикотаж маҳсулотларини экспорт қилган корхоналарни амалга оширган экспорти ҳажмига мутаносиб равишда субсидиялашга рухсат берилсин.

9. Савдо-саноат палатаси бошқа манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда қонунчилик ҳужжатларига ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига иловага\* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

11. Мазкур Фармоннинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Бош вазир ўринбосарлари Ж.А. Қўчқоров ва Ж.А. Ходжаев ҳамда Савдо-саноат палатаси раиси Д.А. Вахабов белгилансин.

Фармон ижросини назорат қилиш, масъул вазирлик ва идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси**  
**Президенти**

**Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,  
2025 йил 16 январь,  
ПФ–6-сон

---

\* Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ  
ФАРМОНИ**8 Пахта хом ашёсини етиштириш ва сотишда бозор механизларини қўллашни изчил давом эттириш чора-тадбирлари тўғрисида**

Пахта хом ашёсини етиштириш ва сотиш тизимини молиялаштиришни бозор механизмларига мослаштириш, пахта таннархини мақбуллаштириш, пахта хом ашёсини биржа савдолари орқали сотишни янги босқичга олиб чиқиш, шунингдек, хўжаликларнинг ва қайта ишловчиларнинг моддий манфаатдорлигини ошириш мақсадида:

1. Белгилансинки, 2025 йил пахта ҳосилидан бошлаб:

Ўзбекистон республика товар-хом ашё биржаси (кейинги ўринларда — Биржа) календарь йилининг 1 ноябрь кунда (2025 йил ҳосили учун 1 февралда) пахта толасининг Нью-Йорк биржасидаги фьючерс котировкаларининг охириги 6 ойдаги ўртача котировкасидан келиб чиққан ҳолда келгуси йил ҳосили учун пахта хом ашёсининг бошланғич нархини (биринчи нав, иккинчи синф) аниқлаб, Биржанинг расмий веб-сайтида эълон қилади;

мулкчилик шаклидан қатъи назар барча пахта хом ашёси етиштирувчи хўжаликлар (кейинги ўринларда — хўжаликлар) ва кластерлар ҳамда пахта хом ашёсини қайта ишлаш ва ип-калава ишлаб чиқариш занжирига эга тўқимачилик корхоналари (кейинги ўринларда — қайта ишловчилар) ўртасида пахта хом ашёси етказиб бериш бўйича олди-сотди (фьючерс, форвард ва спот) шартномалари (кейинги ўринларда — шартномалар) Биржанинг пахта хом ашёси секциясида ҳар бир ҳудуд (Қорақалпоғистон Республикаси ёки тегишли вилоят) бўйича алоҳида ўтказиладиган савдоларда тузилади;

хўжаликлар ҳамда қайта ишловчилар ўртасида тузиладиган шартномалар томонларнинг эркин танлови асосида ўтказиладиган биржа савдолари орқали хўжаликлар томонидан етказиб бериш муддатларини ҳамда бир ёки бир нечта харидорни мустақил равишда танлаш орқали расмийлаштирилади;

Биржада барча шартномалар «Агроплатформа» ахборот тизими билан интеграция қилинган маълумотлар базасида мавжуд бўлган хўжаликлар ва қайта ишловчилар ўртасида тузилади.

2. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ 2025 йил пахта ҳосилидан бошлаб:

а) фьючерс шартномалари календарь йилнинг 1 ноябридан кейинги йилнинг 1 июнигача хўжаликлар ва қайта ишловчилар ўртасида биржада эркин шаклланадиган, бироқ эълон қилинган бошланғич нархдан паст бўлмаган нархда тузилади.

Бунда фьючерс шартномаси Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма) ресурслари ҳисобидан имтиёзли кредит ажратишга асос бўлади ва имтиёзли кредит эълон қилинган бошланғич нархдан келиб чиқиб ажратилади;

б) форвард шартномалари календарь йилнинг 1 ноябридан кейинги йил-



нинг 1 мартигача хўжаликлар ва қайта ишловчилар ўртасида ўзаро келишилган нархларда тузилади.

Бунда пахта хом ашёсини етиштириш харажатлари хўжаликлар ва қайта ишловчиларнинг ўз маблағлари ёки тижорат кредитлари ҳисобидан амалга оширилади;

в) спот шартномалари реал вақт режимида омборда сақланаётган пахта хом ашёси ҳажмига хўжаликлар ва қайта ишловчилар ўртасида ўзаро келишилган нархда тузилади. Бунда:

хўжаликларга Жамғарма ресурслари ҳисобидан имтиёзли кредитлар ажратишда банкка кредит қийматининг 50 фоизи миқдориди ликвидли мол-мулк тақдим этилади;

спот шартномалари расмийлаштиришни режалаштирган хўжаликлар ҳар ҳосил йилининг 1 мартигача (2025 йил ҳосили учун 1 майгача) мавжуд пахта хом ашёсини сақлаш омборлари (маскан) белгиланган талабларга жавоб бериши юзасидан Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекцияси ва бошқа тегишли идоралар томонидан берилган хулосани ёки худди шундай хулосаси мавжуд омборларда вақтинча сақлаш бўйича тузилган ижара шартномасини «Агроплатформа» ахборот тизимига киритиши шарт;

г) сақлаш омборлари ёки ижара шартномалари мавжуд бўлмаган хўжаликлар ўзи етиштирадиган пахта хом ашёси бўйича ҳар ҳосил йилининг 1 мартигача форвард ёки 1 июнигача фьючерс шартномалари расмийлаштиради.

3. Белгилансинки, 2025 йил ҳосилидан бошлаб:

пахта хом ашёсини ўз маблағлари ва тижорат кредитлари ҳисобидан етиштириб, Биржада сотган хўжаликларга шаклланган ҳисобварақ-фактура қийматининг 10 фоизи миқдориди субсидия ажратилади;

пахта хом ашёсини етиштириш учун олинган имтиёзли кредитларни ҳосил йилининг якунига (тегишли йилнинг 31 декабрига) қадар қайтарган хўжаликларга ушбу кредитлар бўйича тўланган фоиз тўловларининг 4 фоизлик пунктини субсидия сифатида қайтариб бериш тартиби жорий этилади;

мулкчилик шаклидан қатъи назар барча тадбиркорлик субъектларига, шу жумладан, фермерлар ҳамда кооперативларга пахта хом ашёсини сақлаш ва бирламчи (тегирмон усулида) қайта ишлаш хизматларини ташкил этиш учун зарур бўлган асбоб-ускуналарни сотиб олишга Жамғарма ресурслари ҳисобидан тижорат банклари томонидан Марказий банкнинг асосий ставкасида (шундан 2 фоиз банк маржаси) уч йил муддатга 6 ойлик имтиёзли давр билан кредитлар ажратилади. Бунда тадбиркорлик субъектлари фақат пахта хом ашёсини қайта ишлаб бериш билан шуғулланади ва пахта хом ашёсини сотиб олиш ҳуқуқига эга бўлмайди.

Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда икки ой муддатда мазкур банднинг иккинчи ва учинчи хатбошиларида назарда тутилган субсидияларни ажратиш тартибларини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

4. Адлия вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда бир ой муддатда қайта ишловчилар томонидан фаолияти давомида банкрот-

лик эълон қилиниб, кейинчалик ушбу корхоналар фаолияти тикланганда, банкротлик даври мобайнида тижорат банклари томонидан тўхтатилиб ва ундирилмаган фоиз харажатлари тўлиқ тўлаб берилиши юзасидан амалдаги қонунчиликка ўзгартириш киритиш юзасидан таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

5. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳамда Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳар йили 1 сентябрга қадар:

Транспорт вазирлиги билан биргаликда пахта хом ашёсини ташиш харажатларининг харидор томонидан қопланишини назарда тутувчи тавсиявий тарифни;

Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси билан биргаликда пахта хом ашёсини қабул қилиш, сақлаш ва қайта ишлаш бўйича хизмат тарифларининг чекланган миқдорини тасдиқлайди.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 19 июндаги «Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш харажатларини молиялаштиришнинг узлуксизлигини таъминлаш тўғрисида»ги ПФ-98-сон Фармониغا асосан Жамғарма харажатларини молиялаштириш учун Тикланиш ва тараққиёт жамғармасидан Иқтисодиёт ва молия вазирлигига ажратилган кредитларнинг қолдиқ қисмини қайтариш муддати 5 йилга узайтирилсин.

7. Вазирлар Маҳкамаси икки ҳафта муддатда Жамғарма ресурслари ҳисобидан истиқболли лойиҳалари бор пахта-тўқимачилик кластерларига 2022-2023 йиллар пахта ҳосилини етиштириш ва теримини молиялаштириш учун ажратилган кредитларнинг муддатларини узайтириш ва муддатларига мутаносиб равишда фоиз ставкаларини белгилаш юзасидан тегишли қарорни тасдиқласин.

Бош прокуратура (Ж. Хатамов) муддати узайтириладиган кредитларнинг ўз муддатларида қайтарилиши устидан назорат ўрнатсин.

8. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги уч ой муддатда:

Пахтачилик кенгаши ҳамда Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги билан биргаликда пахта хом ашёсини навлар бўйича қабул қилишнинг давлат стандартларига ўзгартиришлар киритсин;

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Фанлар академияси билан биргаликда қишлоқ хўжалигини сифатли, ҳосилдорлиги юқори ва касалликларга чидамли уруғлик билан таъминлаш ҳамда импорт уруғга бўлган талаб ўсишининг олдини олиш мақсадида селекционер олимлар, уруғчилик корхоналари, шу жумладан, хусусий корхоналарнинг манфаатдорлигини ошириш тизимини тубдан яхшилаш бўйича таклифларини Вазирлар Маҳкамасига киритсин;

пахта ва ғалла қабул қилиш масканларидаги электрон тарозидаги маълумотлар тўғридан-тўғри Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг «Ҳосил қабули» ахборот тизимига узатилишини йўлга қўйсин.

Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Рақамли технологиялар вазирлиги билан биргаликда «Ҳосил қабули» ахборот тизимини такомиллаштириш бўйича ишларни якунига етказиш мақсадида кластерлар, кооперативлар ва тўқима-

чилик корхоналарига қабул масканларини кузатув камералари билан жиҳозлаш, дастурий ечимларни жорий этиш, узлуксиз интернет ва қувват манбаларини ўрнатиш каби комплекс хизматлар тақдим этсин.

9. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Биржа, манфаатдор вазирлик ҳамда идоралар билан биргаликда уч ой муддатда донни қабул қилиш ва омборлардан чиқариш, шунингдек, биржа савдоларида сотиш жараёнлари тезкор ва шаффоф амалга оширилишини таъминлаш мақсадида тегишли ахборот тизимларини Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг «Ҳосил қабули» ахборот тизими билан интеграция қилсин.

10. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги:

а) Савдо-саноат палатаси ва Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги билан биргаликда ҳар йили август ойида пахта хом ашёсини қабул қилувчи корхоналарнинг (кластерлар, кооперациялар) пахта хом ашёсини қабул қилиш билан шуғулланувчи ходимларини электрон тарози ва «Ҳосил қабули» ахборот тизими билан ишлаш учун қайта тайёрлаб боришни ташкил этсин;

б) Сув хўжалиги вазирлиги ва Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ҳамда вилоятлар ҳокимликлари билан биргаликда:

дастлабки босқичда суғориладиган қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчи субъектлар ерлари тупроқларининг таҳлил маълумотлари, тупроқ ҳолати, хосса-хусусиятлари, унумдорлиги, гумус ва озуқа миқдорлари, шўрланиши, эрозияси тўғрисидаги батафсил маълумотларни акс эттирган тегишли хариталар ҳамда ҳар бир контур ва экин турига қараб илмий асосланган тавсияларни ўз ичига олувчи «тупроқ-паспорти»нинг 2026 йил якунига қадар ишлаб чиқилишини;

2027 йил ҳосилидан бошлаб, экинларни жойлаштириш, агротехник тадбирларни ўтказиш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини молиялаштириш жараёнлари «тупроқ паспорти»га мувофиқ илмий асосда амалга оширилишини таъминласин.

11. Биржа Қишлоқ хўжалиги вазирлиги билан биргаликда икки ҳафта муддатда пахта хом ашёсини сотиш бўйича фьючерс, форвард ва спот шартномаларининг шаклларини мазкур Фармон билан белгиланган тартибга мувофиқлаштирсин.

12. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳамда Биржа билан биргаликда бир ой муддатда барча хўжаликлар ва қайта ишловчилар учун биржада иштирок этиш тартиби юзасидан ўқув семинарини ташкил этиш чораларини кўрсин.

13. Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, «Ўзкимёсаноат» АЖ ҳамда Сув хўжалиги вазирлиги билан биргаликда сув тежовчи технологиялар қўлланаётган майдонларни сувда эрийдиган минерал ўғитлар билан таъминлаш мақсадида республикадаги кимё саноати корхоналари томонидан ишлаб чиқариладиган минерал ўғитларга нисбатан қўйилган техник талабларни қайта кўриб чиқсин ҳамда ми-

нерал ўғитларнинг сувда эрувчанлик даражасини техник талабларда қатъий белгиласин.

14. «Ўзкимёсаноат» АЖ Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳамда Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши билан биргаликда ҳар ойда камида бир марта ҳудудларда «Ўзкимёсаноат» АЖ тизимидаги корхоналар томонидан ишлаб чиқариладиган минерал ўғитларнинг сифати ва хусусиятлари юзасидан деҳқон, фермер хўжаликлари ва бошқа қишлоқ хўжалиги корхоналари иштирокида таҳлиллар ўтказиш, уларнинг фикрларини ўрганиш ҳамда мақбул таклифларни амалиётга татбиқ этиш тизимини йўлга қўйсин.

15. Белгилансинки, 2025 йил 1 апрелдан бошлаб пахта хом ашёси ва ундан тайёрланган барча турдаги маҳсулотлар бўйича электрон ҳисобварақ-фактура расмийлаштирилганда бир вақтнинг ўзида товар-транспорт юк хатини ҳам расмийлаштириш талаб этилади. Бунда:

ушбу маҳсулотлар турлари рўйхати Маҳсулотлар (товар ва хизматлар) ягона электрон миллий каталоги кодлари бўйича Солиқ қўмитаси томонидан тасдиқланади.

ушбу банднинг биринчи хатбошисида кўрсатилган муддатдан сўнг электрон ҳисобварақ-фактура ва товар-транспорт юк хати расмийлаштирилмаган ва омборларда сақланаётган товар-моддий захиралар қолдиқлари солиқ органлари томонидан санокдан (инвентаризациядан) ўтказилмайди ва солиқ солиш мақсадларида солиқ тўловчининг омборида мавжуд эмас деб ҳисобланади ҳамда солиқ базасини яшириш (камайтириб кўрсатиш) деб баҳоланади.

16. Тадбиркорлик субъектлари томонидан барча пахта хом ашёси ва уни қайта ишлашдан олинган маҳсулотлар бўйича мавжуд товар-моддий захиралар тўғрисидаги маълумотлар 2025 йил 1 апрелга қадар солиқ органларининг маълумотлар базасига киритилиши таъминлансин.

17. Солиқ қўмитаси икки ой муддатда тадбиркорлик субъектларига уларнинг ҳисоботларига асосан қолдиқда қолаётган товарлар турлари ва миқдорларини кўрсатиш имконини берувчи дастурий таъминотни ишга туширсин.

Бунда, мазкур дастурий таъминотни ишлаб чиқиш билан боғлиқ харажатлар Солиқ қўмитасининг Моддий ёрдам, ижтимоий химоя, солиқ органларини ривожлантириш ва кўзда тутилмаган харажатлар махсус жамғармаси маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади.

18. Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Биржа ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоят ҳокимликлари билан биргаликда 2025 йил 1 мартга қадар ушбу Фармоннинг мазмун-моҳияти ва амалий аҳамиятини қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари, шу жумладан, кластер ва фермер хўжаликлари орасида кенг ёритиш ишларини ташкил этсин.

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳамда Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим ҳужжатларига иловага\* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

20. Мазкур Фармоннинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул

\* Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

ва шахсий жавобгар этиб Бош вазир ўринбосарлари Ж.А. Қўчқоров ва Ж.А. Ходжаев ҳамда қишлоқ хўжалиги вазири И.Ю. Абдурахмонов белгилансин.

Фармон ижросини назорат қилиш, масъул вазирлик ва идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси**  
**Президенти**

**Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,  
2025 йил 17 январь,  
ПФ–7-сон

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ  
ҚАРОРИ**9 2025 йилда аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида**

Худудларда аҳоли бандлигини таъминлаш, уларни тадбиркорликка жалб қилиш ва даромадларини ошириш бўйича янги ёндашувларни кенг жорий қилиш, маҳаллаларда эҳтиёжманд аҳоли қатлами билан манзилли ишлашни ташкил этиш ва ижтимоий хизматлар кўламини кенгайтириш, мавжуд ресурслар, имтиёзлар ва преференциялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш орқали юқори даромадли иш ўринларини яратиш ва камбағалликни қисқартириш мақсадида:

1. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги томонидан Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Марказий банк, масъул вазирликлар, идоралар, тижорат банклари, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари билан биргаликда ишлаб чиқилган 2025 йилда аҳолини даромадли меҳнат билан таъминлаш дастури (кейинги ўринларда — Дастур) ҳамда унинг доирасида қуйидагилар:

аҳолини даромадли меҳнат билан таъминлашнинг йиғма мақсадли кўрсаткичлари 1, 1.1 — 1.14-иловаларга\* мувофиқ;

тижорат банклари томонидан аҳоли бандлигини таъминлаш ва тадбиркорликка жалб қилишнинг мақсадли кўрсаткичлари 2-иловага\* мувофиқ;

ишсиз аҳолини касб-хунар ва тадбиркорлик кўникмаларига ўқитишнинг йиғма мақсадли кўрсаткичлари 3, 3.1 — 3.14-иловаларга\* мувофиқ;

аҳолини камбағалликдан чиқаришнинг мақсадли кўрсаткичлари 4, 4.1 — 4.14-иловаларга\* мувофиқ;

янги ёндашувлар асосида аҳоли бандлигини таъминлаш, тадбиркорликка жалб қилиш ҳамда камбағалликдан чиқариш бўйича «Йўл харитаси» 5-иловага\* мувофиқ тасдиқлансин.

Вазирлар Маҳкамаси (Ж. Қўчқоров) икки ҳафта муддатда мутасадди вазирлик ва идоралар томонидан Дастур доирасида секторлар ва маҳаллалар кесимидаги ойма-ой мақсадли кўрсаткичлар Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар, Тошкент шаҳар, туман ва шаҳар кенгашларида муҳокамадан ўтказилишини таъминласин.

2. 2025 йилда Дастур ижроси доирасида 5,2 миллион аҳолини иш билан банд қилиш мақсадида:

а) Марказий банк (Т. Ишметов), Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов), Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (И. Норқулов): тадбиркорларни молиявий қўллаб-қувватлаш, уларнинг муаммоларини ҳал қилиш ҳамда фаолиятини кенгайтириш ҳисобига 1 470 минг нафар;

ишсизларни мавжуд бўш иш ўринларига жойлаштириш орқали 430 минг нафар;

ҳар бир маҳаллада ўртача 40 тадан жами 377,6 мингта микролойихани

\* 1 — 5-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

амалга ошириш ҳисобига 755 минг нафар, шунингдек, «Маҳалла лойиҳаси» дастури доирасида соддалаштирилган тартибда лойиҳаларни молиялаштириш учун янги кредит маҳсулотларини жорий қилиш орқали 250 минг нафар;

худудларда драйвер лойиҳаларни ишга тушириш ҳисобига 122 минг нафар ҳамда микросаноат марказларини барпо этиш лойиҳалари ҳисобига 21 минг нафар;

аҳолига ер майдонларини ижарага бериш, шу жумладан, «компания — кооператив — деҳқон хўжалиги» тамойили асосида кооперативлар ташкил этиш ҳисобига 300 минг нафар;

б) Қишлоқ хўжалиги вазирлиги (И. Абдурахмонов), Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши (А. Хаитов) аҳоли томорқасидан самарали фойдаланишни ташкил этиш ҳамда фермер ва деҳқон хўжаликларини қўллаб-қувватлаш орқали 1 169 минг нафар;

в) Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги (Л. Кудратов), Савдо-саноат палатаси (Д. Ваҳобов) инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш ҳисобига 290 минг нафар;

г) Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги (Ш. Хидоятлов) қурилиш соҳасидаги лойиҳаларни амалга ошириш ҳисобига 169 минг нафар;

д) Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов), Рақамли технологиялар вазирлиги (Ш. Шерматов), Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги (К. Шарипов) аҳолини касб-ҳунар ва тадбиркорликка ўқитиб, ишга жойлаштириш ҳисобига 266 минг нафар аҳолини даромадли меҳнат билан таъминлашга масъул этиб белгилансин.

3. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов) тижорат банклари, масъул вазирликлар, идоралар раҳбарлари ҳамда маҳаллаларга бириктирилган вакиллар томонидан Дастурда белгиланган вазифалар ва лойиҳаларнинг ўз вақтида ва сифатли бажарилиши устидан қатъий назорат ўрнатсин. Бунда:

масъул раҳбарлар ва ходимлар томонидан мақсадли кўрсаткичларга эришиш борасида маҳаллаларда амалга оширилаётган ишлар ҳолатини танқидий баҳолаб борсин;

вазифалар ижроси ва эришилган натижалардан келиб чиқиб, масъул раҳбар ва ходимларни рағбатлантириш ёки уларга нисбатан қонунчиликда белгиланган қатъий чоралар кўриш юзасидан таклифлар киритсин;

хар ой якуни бўйича Дастур ижроси доирасида амалга оширилаётган ишлар натижадорлиги, юзага келган қолоқликларни бартараф этиш ҳамда мутасадди раҳбарларнинг масъулиятини ошириш юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президентига ахборот киритиб борсин.

4. Белгилансинки, Дастурнинг амалга оширилишини молиявий қўллаб-қувватлаш мақсадида 126 триллион сўм, шу жумладан:

тижорат банкларининг кичик ва ўрта бизнес субъектларини молиявий қўллаб-қувватлаш учун 120 триллион сўм кредит маблағлари, шундан 2,4 миллиард АҚШ доллари микдоридagi хорижий кредит линиялари;

оғир тоифадаги 1000 та маҳаллалар инфратузилмасини яхшилаш учун 3,2 триллион сўм бюджет маблағлари;

туман ва шаҳарларнинг ихтисослашувидан келиб чиқиб, саноат, қишлоқ хўжалиги ва хизмат кўрсатиш соҳаларида тадбиркорликнинг ривожланишига туртки берувчи драйвер лойиҳалар учун зарур инфратузилмани яратишга 1 триллион сўм бюджет маблағлари;

мақсадли жамғармалар орқали камбағалликни қисқартириш ва аҳоли бандлигини таъминлашни рағбатлантириш учун 952 миллиард сўм йўналтирилади.

5. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси, «Паррандасаноат» уюшмаси ва «Микрокредитбанк» АТБнинг 2025-2026 йилларда Наманган, Тошкент, Хоразм ва бошқа вилоятларда «Paranda Investment» МЧЖ томонидан паррандачилик соҳасида кооперация тизимида замонавий сўйиш корхоналари (кушхоналар) ва музлаткичли омборхоналар, маҳсулотлар ва чиқиндиларни қайта ишлаш, насли жўжалар етиштириш ва парранда маҳсулотлари ишлаб чиқариш қувватларини ўз ичига олган тайёр бизнес лойиҳаларини амалга ошириш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

Бунда Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси паррандачилик соҳасида кооперация тизимидаги тайёр бизнес лойиҳаларини молиялаштириш учун 50 миллион АҚШ доллари миқдоридagi маблағларни «Микрокредитбанк» АТБнинг устав капиталини оширишга йўналтирсин.

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов), Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси (Б. Норқобилов), «Паррандасаноат» уюшмаси (О. Бутаев) бир ой муддатда кооперация асосида кичик паррандачилик хўжаликларини ташкил этиш тартибини назарда тутувчи қарор лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

6. Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги (А. Абдухакимов) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари билан биргаликда 2025 йилда камбағал оила аъзоларини жалб этган ҳолда:

6-иловага\* мувофиқ 20 минг гектар ўрмон фонди ерларида саноатбоп, манзарали ва мевали дарахт турларидан иборат ўрмонлар барпо этиш, кўчатхоналар ташкил этиш ва доривор ўсимликлар етиштириш лойиҳаларини амалга оширсин. Бунда камбағал оила аъзоларига мазкур ер участкаларида ўз эҳтиёжлари учун сабзавот, полиз ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришга рухсат этилади;

7-иловага\* мувофиқ жами 100 гектар ер участкаларида бруссонетия дарахтини етиштириш бўйича пилот лойиҳаларни амалга оширсин.

Бунда тупроқ-иқлим шароитидан келиб чиқиб, келгуси йилларда республиканинг бошқа ҳудудларида мазкур тажрибани оммалаштириш ва бруссонетия дарахтини қайта ишлаш чоралари кўрилади.

7. Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда Ўрмон хўжалиги агентлиги томонидан тупроқ-иқлим шароитига мос келувчи 1 миллион туп

---

\* 6-7-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.



меваги ва манзарали дарахт қўчатларини оғир тоифадаги 1 024 та маҳаллага етказиб бериш учун зарур маблағларни ажратсин.

8. Белгилансинки, 2025 йил 1 июлдан бошлаб «Экофаол фуқаро» платформасига ўзи эккан дарахти тўғрисида маълумотлар киритган камбағал оилалар аъзоларига ўрмон фонди ерларида экилган ҳар 100 та дарахт учун Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан «Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси доирасидаги маблағлар ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг бир баравари миқдоридан субсидия ажратиш тартиби жорий этилади. Бунда субсидия йил давомида иккига бўлиб (қўчатлар экилган вақтда ҳамда уларни парваришлаш давридан кейин) тенг улушларда тўланади.

Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги (А. Абдуҳақимов) икки ой муддатда ушбу бандда назарда тутилган субсидия ажратиш тартибини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

9. Энергетика вазирлигининг 8-иловага\* мувофиқ оғир тоифадаги 300 та маҳаллада кооперация асосида 180 — 500 кВт қувватга эга қуёш фотоэлектр станцияларини барпо этиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

Белгилансинки:

«Яшил энергия» МЧЖ қуёш фотоэлектр станцияларини барпо этишни лойиҳалаштириш, пудрат ташкилотини аниқлаш ва қурилиш-монтаж ишларини ташкил этади;

«Худудий электр тармоқлари» АЖ фойдаланишга топширилган қуёш фотоэлектр станцияларини биллинг тизимига интеграция қилади;

қуёш фотоэлектр станцияларини бошқаришга кооперация асосида камбағал оилалар аъзолари улушдор сифатида жалб қилинади. Бунда қуёш фотоэлектр станцияларига хизмат кўрсатиш учун камбағал оилалар аъзолари ўқитилади ва ишга қабул қилинади.

Энергетика вазирлиги (Ж. Мирзамаҳмудов), Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги (Л. Қудратов), Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (И. Норқулов) 2025 йил 1 апрелга қадар мазкур бандда белгиланган лойиҳаларни молиялаштириш манбаларини аниқлаб, кооперация асосида кичик электр станцияларини бошқаришни тартибга солишни назарда тутувчи Ҳукумат қарори лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

10. Маҳаллаларда ижарага берилган ер майдонларида «компания — кооператив — деҳқон хўжалиги» тамойили асосида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришнинг замонавий усулларини жорий этиш мақсадида Марказий банк, тижорат банкларининг қуйидаги таклифларига розилик берилсин:

а) иш тажрибасига эга тадбиркорлик субъектлари ва экспортчи корхоналарни жалб қилган ҳолда аҳолига ижара асосида ажратилган ер участкаларида 9-иловага\* мувофиқ намунали лойиҳалар доирасида 492 та қишлоқ хўжалиги кооперативларини ташкил этиш орқали «компания — кооператив — деҳқон хўжалиги» тамойили асосида маҳсулотни узлуксиз етказиб бериш тизимини жорий қилиш. Бунда:

\* 8-9-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

ер майдони 10 гектардан кам бўлмаган контурлардан иборат ҳар бир туманда 40 гектар ер майдонларини танлаб олиш;

танлаб олинган ерларда янги турдаги экинлар плантацияларини ташкил қилиш орқали қўшилган қиймат яратиш лойиҳаларини амалга ошириш;

б) 2022 — 2024 йилларда деҳқон хўжаликлари ташкил этиш учун ажратилган ва келгусида аҳолига ижарага бериладиган ер майдонларида ер участкасидан рухсат этилган фойдаланиш асосий турига мувофиқ «бир контур — бир маҳсулот» тамойили асосида енгил конструкцияли иссиқхона, интенсив боғ, токзор, анорзор, гулчилик ва қўчатчилик плантацияларини яратиш ва резавор мевалар етиштириш лойиҳаларини амалга оширишга рухсат бериш;

в) 2025 йил 1 апрелдан 2028 йил 1 январга қадар янги ташкил этиладиган қишлоқ хўжалиги ва доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш кооперативлари учун ижтимоий солиқ ҳамда уларга ишга қабул қилинган жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғи ставкаларини 1 фоиз этиб белгилаш;

г) Камбағал оилалар реестрига киритилган оилалар аъзоларига қишлоқ хўжалиги кооперативлари устав фондига улуш сифатида киритиш учун Камбағалликни қисқартириш давлат мақсадли жамғармаси ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 бараваригача миқдорда субсидиялар ажратиш.

11. 2025-2026 йилларда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида микросаноат марказларини барпо этиш лойиҳаларининг манзилли рўйхати 10-иловага\* мувофиқ тасдиқлансин.

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов) уч ой муддатда микросаноат марказлари учун ер участкаларини ажратиш ва уларга тадбиркорлик субъектларини жойлаштириш тартибини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

12. Туризм қўмитаси (У. Шадиёв) 11-иловага\* мувофиқ туризм салоҳияти юқори бўлган 53 та маҳаллада янги туризм хизматларини йўлга қўйиб, 1,4 минг нафар камбағал оилалар аъзолари даромадларини оширишга қўмаклашсин.

13. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг Тошкент ходимларни бошқариш ва меҳнатни муҳофаза қилиш коллежи негизида 2025 йил 1 декабрга қадар хусусий инвесторни жалб қилган ҳолда умумий қиймати 10 миллион АҚШ доллари бўлган креатив соҳалар кластерини ташкил қилиш тўғрисидаги таклифи қўллаб-қувватлансин.

Белгилансинки, креатив соҳалар кластери доирасида:

бренд-менежер, стартап-менежер, рақамли маркетинг, видеограф-мобилограф, анимация ва график дизайнери, ландшафт, интерьер ва ишлаб чиқариш дизайнери, модельер-дизайнер ҳамда IT каби 32 турдаги креатив соҳа мутахассисларини тайёрлаш бўйича халқаро стандартларга мувофиқ экспресс курслар ташкил этилади;

300 та тадбиркорлик субъектининг инновацион ва стартап лойиҳалари амалга оширилади ва 1,8 мингта янги иш ўрни яратилади;

креатив тадбиркорликни бошлаш ва кластер иштирокчиларига барча за-

\* 10-11-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

рур хизматларни кўрсатиш бўйича яхлит экотизим (ўқув маркази, малакани баҳолаш маркази, коворкинг маркази, офис майдонлари, кўргазма зали) яратилади.

14. Белгилансинки, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг касбий кўникмалар марказларида (кейинги ўринларда — марказлар):

2025 йил 1 февралдан бошлаб иш берувчилар буюртмаси ва тижорат банклари мижозлари эҳтиёжи асосида ишсиз аҳолини, шу жумладан, камбағал оилалар аъзоларини меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касбларга Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан манзилли ўқитиш тизими жорий этилади;

2025 йил 1 мартдан бошлаб аҳолини касб-ҳунарга ўқитиш ва бандлигини таъминлаш жараёнларини рақамли назорат қилиш тизими йўлга қўйилади;

2025 йил 1 апрелдан бошлаб 12-иловага мувофиқ 12 та янги касб йўналишлари бўйича ўқув курслари ташкил этилади.

15. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

2025 йил 1 февралдан бошлаб Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан касбларга ўқитиш мақсадида ажратиладиган стипендиялар ногиронлиги бўлган шахсларга, шунингдек, муддати уч ойдан кўп давом этадиган ўқув курсларига қабул қилинган Камбағал оилалар реестридаги оилаларнинг ишсиз аъзоларига тўланади.

Бунда стипендияларни тўлаб бориш туман (шаҳар) камбағалликни қисқартириш ва бандликка кўмаклашиш бўлимлари орқали амалга оширилади;

2025 йил 1 майга қадар ишсиз аҳолини, шу жумладан, устувор равишда камбағал оилалар аъзоларини касб-ҳунарга ўқитиш харажатларини қоплаб бериш бўйича ваучер тизими жорий қилинади.

Бунда ўқитиш харажатлари фуқаро танлаган таълим муассасасига ваучер асосида тўлаб берилади.

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов):

2025 йил 1 февралдан бошлаб мазкур тизимни Самарқанд вилояти ва Тошкент шаҳрида синовдан ўтказсин;

синов натижалари асосида 2025 йил 1 апрелга қадар ваучер тизимини барча ҳудудларда жорий қилиш бўйича Ҳукумат қарори лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

16. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов):

2025 йил 1 июлга қадар халқаро молия институтлари ҳамда Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан янги касб йўналишларига ўқитиш йўлга қўйиладиган марказларни зарур асбоб-ускуналар ва малакали мутахассислар билан таъминласин;

2025 йил якунига қадар Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари билан биргаликда хусусий секторни жалб қилган ҳолда самарасиз фойдаланилаётган кунлик меҳнат марказларининг бино-иншоотлари негизида ишсиз аҳолини касб-ҳунарга ўқитиш ва бандлигига кўмаклашиш мақсадида хизмат кўрсатиш объектлари ва касб-ҳунарга ўқитиш марказларини ташкил этсин.

17. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов), Марказий банк (Т. Ишметов), Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (И. Норкулов) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари билан биргаликда 2025 йил якунига қадар тижорат банклари ва тадбиркорлик субъектларини жалб қилган ҳолда бўш турган бино-иншоотлар негизда ускунасослик йўналиши бўйича ўқув-ишлаб чиқариш цехларини ташкил этсин.

Бунда ушбу цехларда металлга ишлов бериш ускуналари, қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган асбоблар, қурилиш асбоблари, ўлчаш воситаларини ишлаб чиқаришни ташкил қилиш, шунингдек, ушбу йўналишлар бўйича мутахассислар тайёрлаш, малакасини ошириш ва бандлигини таъминлаш назарда тутилсин.

18. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликларининг:

2025 йил якунига қадар 60 та туман ва шаҳарни камбағаллик ва ишсизликдан холи ҳудудга айлантириш бўйича мақсадли кўрсаткичлар юзасидан таклифлари 13-иловага\* мувофиқ;

оғир тоифадаги 71 та туманда камбағаллик ва ишсизликни кескин камайтириш бўйича мақсадли кўрсаткичлар юзасидан таклифлари 14-иловага\* мувофиқ маъқуллансин.

19. 2025 йил якуни билан 60 та илғор туман ва шаҳарни камбағаллик ва ишсизликдан холи ҳудудга айлантириш бўйича ишчи гуруҳ таркиби 15-иловага\* мувофиқ тасдиқлансин ва унинг зиммасига 2025 йилда ушбу туман ва шаҳарларда 2,1 миллион нафар аҳолини даромадли меҳнат билан таъминлаш ва 431 минг нафар аҳолини камбағалликдан чиқариш вазифаси юклатилсин.

20. Оғир тоифадаги 71 та туманда камбағаллик ва ишсизликни кескин камайтиришга кўмаклашиш бўйича ишчи гуруҳ 16-иловага\* мувофиқ таркибда ташкил этилсин ва унга қуйидаги вазифалар юклатилсин:

2025 йилда 1,4 миллион нафар аҳолини даромадли меҳнат билан таъминлаш ва 459 минг нафар аҳолини камбағалликдан чиқариш;

бошқа ҳудудлардан илғор тадбиркорларни олиб келиб, уларга қўшимча кредитлар ажратиш орқали ушбу туманларда юқори даромадли иш ўринларини ташкил этиш;

ҳар ҳафта жойларга чиққан ҳолда аҳоли ва тадбиркорлар билан учрашувлар ўтказиш ҳамда уларнинг муаммоларини ҳал қилиб, лойиҳаларини амалга оширишга кўмаклашиш.

21. Марказий банк ва тижорат банкларининг маҳалла банкирлари фаолиятини йўлга қўйиш ва уларнинг асосий вазифалари этиб қуйидагиларни белгилаш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин:

маҳаллаларда ташаббускор аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш, уларнинг бизнес ғоялари асосида янги лойиҳалар ишлаб чиқиш, кредит ажратиш, лойиҳаларни амалга оширишда ҳамроҳлик қилиш;

ўзини ўзи банд қилган шахс — якка тартибдаги тадбиркор — кичик биз-

\* 13 — 16-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

нес — ўрта бизнес занжири асосида тадбиркорликнинг ҳар бир босқичида молиявий хизматлар кўрсатилишини таъминлаш;

аҳоли томорқалари ва ижарага берилган ер участкаларида етиштирилган маҳсулотларни кафолатли сотиб олиш учун тадбиркорлар билан кооперация алоқаларини ўрнатиш ва уларнинг лойиҳаларини молиялаштириш;

тадбиркорлик лойиҳаларини ишга тушириш орқали устувор равишда камбағал оилалар аъзоларини ишга жойлаштириш;

маҳаллаларда ёрдамчи-агентлар орқали банк хизматларини тарғиб қилиш, аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш ва янги мижозларни жалб қилиш;

маҳалланинг ихтисослашуви ва шарт-шароитларидан келиб чиқиб, бошқа ҳудудлардаги ижобий тажрибаларни оммалаштириш.

22. Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси (К. Куранбаев), Республика Маънавий ва маърифат маркази (О. Хасанов), Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (А. Ходжаев), Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси (А. Жўрабоев) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари билан биргаликда маҳаллаларда камбағал оила аъзоларининг ишлаш иштиёқини ва ташаббускорлигини оширишга қаратилган «Фаровон ҳаётга илк қадам», «Ишонч» лойиҳалари ва «Маърифат орқали камбағалликни қисқартириш» дастурини амалга ошириш орқали:

ўз меҳнати билан камбағалликдан фаровонликка эришган оилаларнинг ижобий тажрибаларини оммалаштириш, шу жумладан, маҳаллаларда «Фаровонликка эришган энг намунали оила» танловларини ўтказиш;

эл орасида катта обрўга эга олимлар, ёзувчи-шоирлар, театр, маданият, санъат арбоблари ва маҳалладаги ҳожиларни (оқсоқолларни) «маънавий кўмакчи» сифатида оғир тоифадаги 1 024 та маҳаллага бириктирган ҳолда камбағал аҳоли қатламининг дунёқарашини ўзгартириш;

оғир тоифадаги 1 024 та маҳалладаги «маҳалла еттилиги» аъзолари, маҳалла сервис компаниялари раҳбарлари ҳамда камбағал оилалар вакиллари каскад усулида ўқитиш чораларини кўрсин.

23. Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Саидов) 2025 йил январь — март ойларида камбағалликка қарши курашиш борасидаги илғор тажрибаларни ўрганиш учун ишчи гуруҳларни Хитой Халқ Республикаси ва бошқа хорижий давлатларга юборишни ташкил этсин.

24. 2025 йилда 500 минг нафар норасмий ишлаётган аҳолига қонунчилик талабларига мувофиқ меҳнат фаолиятини юритишига кўмаклашиш орқали уларнинг ижтимоий ҳимоясини таъминлаш мақсадида:

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг Давлат меҳнат инспекцияси «хавфни таҳлил қилиш» тизими асосида корхоналарда норасмий меҳнат фаолиятини юритаётган шахсларнинг меҳнат ҳуқуқларини тиклашга амалий ёрдам кўрсатсин;

Марказий банк тижорат банклари билан биргаликда бизнес режаларида назарда тутилган иш ўринларини яратмаган мижозлар билан манзилли ишлаш орқали норасмий ишлаётган шахсларнинг фаолиятини легаллаштириш чораларини кўрсин;

Солиқ қўмитаси «корхонабай» ишлаш орқали ишчи-ходимларнинг қонунчиликка мувофиқ расмий фаолият юритишини таъминлаш ҳисобига даромадлар базасини кенгайтириш чораларини кўрсин.

25. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга кўра Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги Дастур доирасида аҳоли бандлигини таъминлаш кўрсаткичлари, шу жумладан, маҳалла банкирлари томонидан амалга оширилган лойиҳаларнинг натижадорлиги ҳамда иш ўринлари яратилиши устидан назоратни таъминлайди. Бунда:

тижорат банклари раҳбарлари ҳамда ҳокимлар томонидан ҳар бир маҳаллада аҳоли бандлигини таъминлаш ва даромадларини ошириш бўйича тузилган ҳамкорлик шартномалари ижроси тизимли мониторинг қилиб борилади;

туман (шаҳар) ҳокимлиги, маҳалла фуқаролар йиғини билан оғир тоифадаги 1 024 та маҳаллада аҳоли фаоллигини ошириш ва камбағалликни қисқартириш бўйича тузилган уч томонлама шартномалар ижроси назорат қилиб борилади;

маҳаллаларда, шу жумладан, аҳоли томорқаларида ва ижарага берилган ер участкаларида аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликдан чиқариш бўйича кўрилаётган чоралар натижаларининг ҳақиқий ҳолати тўғрисидаги маълумотлар «online-mahalla.uz» электрон платформасига киритиб борилади;

яратилган янги иш ўринлари ва бандлиги таъминланган аҳоли тўғрисидаги маълумотлар Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар, Тошкент шаҳри ҳамда туман ва шаҳар ҳокимликлари ҳузуридаги штаблар ва тижорат банклари томонидан ҳар ойнинг 15-санасига қадар «yangiish.mehnat.uz» электрон платформасига (кейинги ўринларда — платформа) йўналишлар ва маҳаллалар кесимида киритилади;

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳар ойнинг 15-санасига қадар яратилган янги иш ўринлари ва бандлиги таъминланган аҳоли тўғрисидаги маълумотларни платформа орқали Солиқ қўмитасига тақдим этиб боради;

Солиқ қўмитаси ҳар ойнинг 20-санасига қадар платформа орқали қабул қилинган маълумотларнинг ҳаққонийлигини текшириб, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигига тақдим этади;

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги «online-mahalla.uz» ва «yangiish.mehnat.uz» платформаларидаги, шунингдек, ҳудудларда ўтказилган ўрганишлар юзасидан тайёрланган маълумотлар асосида ҳар ойнинг 25-санасига қадар аҳоли бандлигини таъминлаш борасида амалга оширилаётган ишлар натижадорлиги тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига ахборот киритиб боради.

26. Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази (О. Ҳакимов) Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Заҳидов) билан бирга жойларга чиққан ҳолда янги ёндашувлар асосида аҳоли бандлигини таъминлаш, уларни тадбиркорликка жалб қилиш ва камбағалликдан чиқариш бўйича лойиҳалар самарадорлигини ўрганиб, ҳар чоракда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига ахборот киритиб борсин.

27. Меҳнат бозорига кириб келувчи фуқароларнинг бандлигини таъ-

минлаш ва камбағалликни қисқартиришда маҳаллалар кесимида манзилли ишлаш тизимини йўлга қўйиш, ишсиз фуқароларнинг манзилли рўйхатини аниқлаш мақсадида вазирлик ва идоралар:

2025 йил 1 мартга қадар 17-иловага\* мувофиқ маълумотларни жисмоний шахсларнинг шахсий идентификация рақами билан бирга Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигига тақдим этсин;

2025 йил 1 апрелга қадар ўз ахборот тизимларини Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг ахборот тизимига ва «Рақамли ҳукумат» тизимининг идоралараро интеграциялашув платформасига интеграция қилсин ва маълумотларни реал вақт режимида тақдим этиб боришни таъминласин.

28. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига 18-иловага\*\* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

29. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги (Б. Захидов) Адлия вазирлиги (А. Ташкулов) ҳамда манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда уч ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

30. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазири Б.Э. Захидов ва Марказий банк раиси Т.А. Ишметов белгилансин.

Қарор ижросини муҳокама қилиб бориш, масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Бош вазир ўринбосари Ж.А. Қўчқоров зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси**  
**Президенти**

**Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,  
2025 йил 17 январь,  
ПҚ–12-сон

\* 17-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

\*\* 18-илова берилмайди.

Ўзбекистон Республикаси  
Президентининг 2025 йил 17 январдаги  
ПҚ–12-сон қарорига  
12-ИЛОВА

**Касбий кўникмалар марказларида ташкил этиладиган  
янги касб йўналишлари  
РЎЙХАТИ**

1. Электромобилларни таъмирловчи ва уларга техник хизмат кўрсатувчи чилангар.
2. Муқобил ва ноанъанавий энергия манбаларига хизмат кўрсатиш қурилмалари бўйича техник (механик) ёрдамчи.
3. Электр кўтаргичларни (лифт ва эскалаторларни) таъмирлаш ва уларга хизмат кўрсатиш бўйича чилангар-монтажчи.
4. Замонавий сув тежовчи суғориш технологияларига хизмат кўрсатувчи техник.
5. Оғир юкларни кўтариш, ортиш ва ташиш йўналишлари (кран, экскаватор ва бульдозер машинисти, кара, самосвал ҳайдовчиси ва бошқалар).
6. Шамоллатиш, ҳавони тозалаш, совутиш мосламаларини таъмирлаш бўйича чилангар.
7. Ландшафт, интерьер ва ишлаб чиқариш дизайнери.
8. Алюминий ва пластик профиллар билан ишлаш устаси.
9. Автотюнинг механиги.
10. Видеограф-мобилограф.
11. Рақамли маркетинг.
12. Мобиль иловалар яратувчи дастурчи.

*Изоҳ: Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигига меҳнат бозоридаги эҳтиёжни инобатга олиб бошқа касб йўналишлари бўйича ўқув курсларини ташкил этиш ҳуқуқи берилади.*



**БЕШИНЧИ БЎЛИМ****О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**10** “Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan bino va inshootlarni kapital ta‘mirlashni moliyalashtirish va manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruq, shuningdek unga o‘zgartirishlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida\*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
14-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1073-2*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-oktabrdagi 651-son “Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-apreldagi 206-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2001-yil 19-sentabrdagi 107-son “Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan bino va inshootlarni kapital ta‘mirlashni moliyalashtirish va manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1073, 2001-yil 3-oktabr) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me‘yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2001-y., 19-son);

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2003-yil 26-dekabrdagi 135-son “Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan bino va inshootlarni kapital ta‘mirlashni moliyalashtirish va manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1073-1, 2004-yil 14-yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 1-2-son, 23-modda).

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan kelishilgan.

---

\* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 14-yanvarda e‘lon qilingan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Vazir**

**D. KUCHKAROV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 27-dekabr,  
214-son

*Kelishildi:*

*Qurilish va uy-joy kommunal  
xo'jaligi vaziri*

**Sh. XIDOYATOV**

*2024-yil 25-dekabr*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING  
QARORI

**11 O‘zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida\***

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
14-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3597*

O‘zbekiston Respublikasi “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining 2022-yil 12-martdagi 3 va 5-son “O‘zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 3357, 2022-yil 31-mart) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.03.2022-y., 10/22/3357/0254-son) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Qishloq xo‘jaligi vaziri**

**I. ABDURAHMONOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 27-dekabr,  
23-son

**Sog‘liqni saqlash vaziri**

**A. XUDAYAROV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 26-dekabr,  
19-son

\* Ushbu qaror «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 14-yanvarda e‘lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi  
Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil  
27-dekabrda 23-son va Sog'liqni saqlash  
vazirligining 2024-yil 26-dekabrda  
19-son qaroriga  
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga  
ega bo'lgan zararli organizmlar  
RO'YXATI**

T/r	Lotin tilidagi nomi	Davlat tilidagi nomi
<b>A1. O'zbekiston Respublika hududida uchramaydigan karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlar</b>		
<b>I. Zararkunandalar</b>		
1.	<i>Aceria sheldoni</i> (Ewing)	Sitrus kurtak kanasi
2.	<i>Acrobasis pyrivorella</i> (Matsumura)	Nok parvonasi
3.	<i>Agrilus mali</i> Matsumura	Olma tilla qo'ng'izi
4.	<i>Aleurocanthus woglumi</i> Ashby	Qora sitrus oqqanoti
5.	<i>Aleurothrixus floccosus</i> Maskell	Yungli oqqanot
6.	<i>Aleurocanthus spiniferus</i> (Quaintance)	Tikanli tog' oqqanoti
7.	<i>Anisandrus dispar</i> (Fabricius)	G'arb po'stloqxo'ri
8.	<i>Anoplophora chinensis</i> (Forster)	Xitoy mo'ylovdori
9.	<i>Anoplophora glabripennis</i> Motschulsky	Osiyo mo'ylovdori
10.	<i>Anthonomus grandis</i> Boheman	G'o'za uzunburini
11.	<i>Anthonomus signatus</i> Say	Qulupnay kurtakxo'ri
12.	<i>Aonidiella aurantii</i> (Maskell)	Qizil pomoranets qalqondori
13.	<i>Aonidiella citrina</i> Coquillett	Sariq pomoranets qalqondori
14.	<i>Bactrocera dorsalis</i> (Nendel)	Sharq meva pashshasi
15.	<i>Bactrocera minax</i> (Enderlein)	Katta mandarin pashshasi
16.	<i>Blissus leucopterus</i> (Say)	Bug'doy qandalasi
17.	<i>Bruchidius incarnatus</i> (Boheman)	Misr no'xot donxo'ri
18.	<i>Callosobruchus phaseoli</i> (Gyllenhal)	Hind loviya donxo'ri
19.	<i>Callosobruchus chinensis</i> (Linnaeus)	Xitoy donxo'ri
20.	<i>Carposina sasakii</i> Matsumura	Shaftoli meva kuyasi
21.	<i>Caryedon serratus</i> (Olivier)	Yeryong'oq donxo'ri
22.	<i>Caulophilus latinasus</i> (Say)	Keng xartumli ombor uzunburuni
23.	<i>Ceratitidis capitata</i> (Wiedemann)	O'rta yer dengizi meva pashshasi
24.	<i>Ceratitidis rosa</i> Karsch	Nataliya meva pashshasi
25.	<i>Ceroplastes ceriferus</i> (Fabricius)	Hind mumsimon soxta qalqondori
26.	<i>Ceroplastes rusci</i> (Linnaeus)	Anjir mumsimon soxta qalqondori
27.	<i>Ceroplastes japonicus</i> Green	Yaponiya mumsimon soxta qalqondori
28.	<i>Chionaspis furfura</i> (Fitch)	Tangasimon qalqondor
29.	<i>Chloridea virescens</i>	Tamaki barg o'rovchisi
30.	<i>Coccus perlatus</i> (Cockerell)	Uchburchaksimon soxta qalqondor
31.	<i>Conotrachelus nenuphar</i> (Nerbst)	Meva uzunburuni

32.	<i>Choristoneura occidentalis</i> Freeman	G'arbiy archa barg buramachisi
33.	<i>Dacus ciliatus</i> Loew	Kichik qovoq pashshasi
34.	<i>Diabrotica virgifera virg.</i> Leconte	G'arbiy makkajo'xori qo'ng'izi
35.	<i>Diaphorina citri</i> Kuwayana	Sharq yoki Osiyo barg burgasi
36.	<i>Dinoderus bifoveolatus</i> Wollaston	Soxta po'stloq hammaxo'ri
37.	<i>Drosophila suzukii</i> (Matsumura)	Osiyo meva drozofilasi
38.	<i>Dysmicoccus brevipes</i> (Cockerell)	Ananas unsimon qurti
39.	<i>Dysmicoccus wistariae</i> (Green)	Yaponiya qurti
40.	<i>Epitrix tuberis</i> Gentner	Kartoshka tunganagi kana qo'ng'izi
41.	<i>Frankliniella williamsi</i> Nood	Makkajo'xori tripsi
42.	<i>Frankliniella schultzei</i> Trybom	Pomidor tripsi
43.	<i>Nalyomorpha halys</i> Stal	Jigarrang marmar qandala
44.	<i>Nelicoberpa zea</i> (Boddie)	Amerika makkajo'xori tunlami
45.	<i>Nyphantria cunea</i> Drury	Amerika oq kapalagi
46.	<i>Icerya purchasi</i> Maskell	Avstraliya tarnovsimon qurti
47.	<i>Ips plastographus</i> (Leconte)	Kaliforniya po'stloqxo'ri
48.	<i>Keiferia lycopersicella</i> (Walsingham)	Amerika pomidor kuyasi
49.	<i>Lindingaspis rossi</i> (Maskell)	Qora araukariy qalqondori
50.	<i>Liriomyza nitzkei</i> Spencer	Piyoz minyori
51.	<i>Liriomyza huidobrensis</i> (Blanchard)	Janubiy Amerika barg minyori
52.	<i>Liriomyza trifolii</i> (Burgess)	Amerika yo'ng'ichqa minyori
53.	<i>Lopholeucaspis japonica</i> (Cockerell)	Yaponiya cho'psimon qalqondori
54.	<i>Margarodes vitis</i> (Philippi)	Janubiy Amerika tok qurti
55.	<i>Meromyza nigriventris</i> Macquart	Don meromizasi
56.	<i>Naupactus xanthographus</i> (Germar)	Janubiy Amerika meva uzunburuni
57.	<i>Naupactus leucoloma</i> Bohemann	Oq hoshiyali qo'ng'iz
58.	<i>Nemorimyza maculosa</i> (Malloch)	Xrizontema barg minyori
59.	<i>Nipaeococcus nipae</i> (Maskell)	Palma qurti
60.	<i>Paralipsa gularis</i> (Zeller)	Yeryong'oq parvonasi
61.	<i>Pectinophora gossypiella</i> (Saunders)	G'o'za kuyasi
62.	<i>Pinnaspis strachani</i> (Cooley)	Kichik qorsimon qalqondor
63.	<i>Planococcus minor</i> (Maskell)	Tinch okean unsimon qurti
64.	<i>Popillia japonica</i> Newman	Yapon qo'ng'izi
65.	<i>Pseudaulacaspis pentagona</i> (Targioni-Tozzetti)	Tut qalqondori
66.	<i>Pseudococcus cryptus</i> Nempel	Sharq unsimon qurti
67.	<i>Pseudococcus calceolariae</i> (Maskell)	Sitrus unsimon qurti
68.	<i>Pseudoparlatoria parlatorioides</i> (Comstock)	Orxideya qalqondori
69.	<i>Rhagoletis cingulata</i> (Loew)	Shimoliy Amerika gilos pashshasi
70.	<i>Rhagoletis completa</i> Cresson	Yong'oq pashshasi
71.	<i>Rhagoletis mendax</i> Curran	To'q yaltiroq qanotli pashsha
72.	<i>Rhagoletis pomonella</i> (Walsh)	Olma pashshasi
73.	<i>Ripersiella kondonis</i> (Kuwana)	Ildiz unsimon qurti
74.	<i>Scirtothrips dorsalis</i> Nood	Hindixitoy gul tripsi
75.	<i>Sinoxylon unidentatum</i> (Fabricius)	Arrasimon po'stloq kemiruvchi qo'ng'iz

76.	<i>Spodoptera eridania</i> (Cramer)	Janubiy tunlam
77.	<i>Spodoptera frugiperda</i> (Smith)	Makkajo'xori barglarining tunlami
78.	<i>Spodoptera littoralis</i> (Boisduval)	Misr g'o'za tunlami
79.	<i>Spodoptera litura</i> (Fabricius)	Osiyo g'o'za tunlami
80.	<i>Tecia solanivora</i> (Povolny)	Gvatemala kartoshka kuyasi
81.	<i>Thrips palmi</i> Karny	Palma tripsi
82.	<i>Trogoderma angustum</i> (Solier)	Trogoderma angustum qo'ng'izi
83.	<i>Trogoderma ballfinchae</i> Beal	Trogoderma ballfinchae qo'ng'izi
84.	<i>Trogoderma granarium</i> Everts	Kapr qo'ng'izi
85.	<i>Trogoderma grassmani</i> Beal	Trogoderma grassmani qo'ng'izi
86.	<i>Trogoderma longisetosum</i> Chao & Lee	Trogoderma longisetozum qo'ng'izi
87.	<i>Trogoderma ornatum</i> (Say)	Trogoderma ornatum qo'ng'izi
88.	<i>Trogoderma simplex</i> Jayne	Trogoderma simpleks qo'ng'izi
89.	<i>Trogoderma sternale</i> Jayne	Trogoderma sternale qo'ng'izi
90.	<i>Unaspis citri</i> (Comstock)	Apelsin qalqondori
91.	<i>Unaspis yanonensis</i> (Kuwana)	Sharq sitrus qalqondori
92.	<i>Viteus vitifoliae</i> (Fitch)	Filloksera
93.	<i>Zabrotes subfasciatus</i> (Boheman)	Braziliya donxo'ri
94.	<i>Zeugodacus cucurbitae</i> (Coquilett)	Afrika qovun pashshasi
95.	<i>Zygogramma exclamationis</i> (Fabricius)	Kungaboqar barg qo'ng'izi
<b>II. O'simlik kasalliklari</b>		
<b>a) zamburug' kasalliklari</b>		
1.	<i>Bipolaris maydis</i> (Nisikado & Miyake) Shoemaker	Makkajo'xori janubiy gelmintosporiozi
2.	<i>Cercospora kikuchii</i> Mats & Tom Gard	Soya qizil-pushti serkosporiozi
3.	<i>Diaporthe cucurbitae</i> (McKeen)	Qovoq ekinlarning qora chirishi
4.	<i>Diaporthe helianthi</i> Munt	Kungaboqar poyasining kulrang dog'li kasalligi
5.	<i>Diaporthe phaseolorum</i> Cke & Ell	Soya poyasi raki
6.	<i>Glomerella gossypii</i> Edgerton	G'o'za antraknozi
7.	<i>Mycosphaerella linicola</i> Naumov	Zig'ir pasmosi
8.	<i>Phialophora cinerescens</i> (Wr) van Bryna	Chinnigul fialoforoz kasalligi
9.	<i>Phomopsis viticola</i> Sacc.	Uzum so'lish kasalligi
10.	<i>Phymatotrichopsis omnivora</i> (Duggar) Nennebert	Texas ildiz chirish kasalligi
11.	<i>Puccinia horiana</i> P. Nennengs	Xrizantema oq rang kasalligi
12.	<i>Stagonosporopsis andigena</i> (Turkensteen) Aveskamp, Gruyter & Verkley	And fomez kasalligi
13.	<i>Stagonosporopsis chrysanthemi</i> (F. Stevens) P.W. Crous, N. Vaghefi & P.W.J. Taylor	Xrizantema askoxitozi
14.	<i>Stenocarpella macrospora</i> (Earle) Sutton	Makkajo'xori diplodiozi

15.	<i>Synchytrium endobioticum</i> (Schilb) Percival	Kartoshka rak kasalligi
16.	<i>Thecaphora solani</i> (Thirumulachar et O. Brien) Mordue	Kartoshka qora-kuyasi
17.	<i>Tilletia indica</i> Mitra	Hind bug'doy qora-kuyasi
<b>b) nematodalar</b>		
1.	<i>Bursaphelenchus xylophilus</i> (Steiner & Böhner) Nickle	Qarag'ay yog'och nematodasi
2.	<i>Globodera pallida</i> (Stone) Behrens	Kartoshka nimrang nematodasi
3.	<i>Globodera rostochiensis</i> (Wollenweber) Behrens	Kartoshka oltinrang nematodasi
4.	<i>Neterodera oryzae</i> (Luc & Berdon)	Sholi o'simligining gall nematodasi
5.	<i>Longidorus diadecturus</i> (Eveleigh & Allen)	Igna nematodasi
6.	<i>Meloidogyne chitwoodi</i> Golden, O'Bannon, Santo & Finley	Kolumbiya gall nematodasi
7.	<i>Meloidogyne enterolobii</i> Yang & Eisenback	Ildiz gall nematodasi
8.	<i>Meloidogyne ethiopica</i> (Whitehead)	Ildiz tugunli nematodasi
9.	<i>Meloidogyne graminicola</i> Golden & Birchfield	Sholi ildizi tugunli nematodasi
10.	<i>Meloidogyne luci</i> (Carneiro), Correa, Almeida, Gomes, Deimi, Castagnone-Serreno & Karssen	Tropik ildiz tugunli nematodasi
11.	<i>Meloidogyne mali</i> Ito, Oshima & Ichinohe	Olma gall nematodasi
12.	<i>Nacobbus aberrans</i> (Thorne) Thorne & Allen.	Soxta gall nematodasi
13.	<i>Radopholus similis</i> (Thorne)	Teshuvchi nematoda
<b>d) bakterial kasalliklar</b>		
1.	<i>Acidovorax citrulli</i> Schaad et al.	Qovoq ekinlarining bakterial dog'lanishi
2.	<i>Candidatus Phytoplasma mali</i> Seemüller & Schneider	Olma shoxlarining anomal rivojlanish
3.	<i>Corynebacterium tritici</i> (Carlson & Vidaver) Zgurskaya, Evtushenko, Akimov & Kalakoutskii	Bug'doyning sariq shilliq bakteriozi
4.	<i>Candidatus Phytoplasma phoenicium</i> Verdin, Salar, Danet, Choueiri, Jreijiri, El Zammam, Għlie, Bovň & Garnier	Bodom shoxlarining anomal rivojlanish kasalligi
5.	<i>Candidatus Phytoplasma solani</i> Quaglino, Zhao, Casati, Bulgari, Bianco, Wei & Davis	Uzum shoxlarining qorayish kasalligi
6.	<i>Candidatus Phytoplasma pyri</i> Seemüller & Schneider	Nok shoxlarining anomal rivojlanish kasalligi
7.	<i>Candidatus Phytoplasma vitis</i>	Tok barglarining zarrin sarg'ayish kasalligi

8.	<i>Erwinia amylovora</i> (Burrill) Winslow, Broadhurst, Buchanan, Krumwiede, Rogers & Smith	Mevali daraxtlarning bakterial kuyish kasalligi
9.	<i>Pantoea stewartii</i> subsp. <i>stewartii</i> (Smith) Mergaert, Verdonck & Kersters	Makkajo'xori vilti
10.	<i>Pseudomonas caryophylli</i> (Burkholder) Starr & Burkholder	Chinnigul vilti
11.	<i>Ralstonia solanacearum</i> (Smith) Yabuuchi et al. emend. Safni et al.	Jigarrang kartoshka chirishi
12.	<i>Xanthomonas campestris</i> pv. <i>citri</i> (Nasse) Dye	Sitrus rak kasalligi
13.	<i>Xanthomonas campestris</i> pv. <i>hyacinthi</i> (Wakker) Dye	Giatsint sariq kasalligi
14.	<i>Xanthomonas campestris</i> pv. <i>oryzae</i> (Ishiyama) Dye	Sholining bakterial kuyish kasalligi
15.	<i>Xanthomonas campestris</i> pv. <i>oryzicola</i> (Fang, Ren, Chen, Chu, Faan & Wu) Dye	Sholining bakterial chiziqli kasalligi
16.	<i>Xylella fastidiosa</i> Wells et al.	Tok bakteriozi (Pirs kasalligi)
17.	<i>Xylophilus ampelinus</i> (Panagopoulos) Willems, Gillis, Kersters, van den Broeke & De Ley	Uzumning bakterial so'lish kasalligi
<b>e) virus kasalliklari</b>		
1.	American plum line pattern virus (APLPV)	Olxo'ring chiziqli amerika kasalligi
2.	Andean potato mottle virus (APMoV)	Kartoshkaning And virusi
3.	Andean potato mild mosaic virus (APMMV)	Kartoshkaning yengil mozaikali And virusi
4.	Andean potato latent virus (APLV)	Kartoshkaning latent And virusi
5.	Arabis mosaic virus (ArMV)	Arabis mozaika virusi
6.	Barley stripe mosaic virus (BSMV)	Arpaning chiziqli qurama kasalligi
7.	Benyvirus necrobetae (BNYVV)	Lavlagi nekrotik sariq tomir benivirusi
8.	Blueberry leaf mottle nepovirus (BLMOV)	Golubika barglari nepovirusi
9.	Chrysanthemum stunt viroid (CSVd)	Xrizatemaning pakanalik kasalligi
10.	Citrus tristeza virus (CTV)	Sitrus tristesa kasalligi
11.	Impatiens necrotic spot virus (INSV)	Xinagul dog'simon nekrozi virusi
12.	Orthotospovirus citrullomaculosi (WMSMOV)	Tarvuzning kumush dog'li ortotospovirusi
13.	Peach latent mosaic viroid (PLMVd)	Shaftoli yashirin mozaika viroid kasalligi
14.	Peach rosette mosaic virus (PRMV)	Shaftolining qurama kasalligi
15.	Pepino mosaic virus PepMV (PepMV)	Pepino mozaika virusi
16.	Plum pox virus (PPV)	Olxo'ring cho'tir kasalligi
17.	Potato T tepovirus (PVT)	Kartoshkaning T tepavirusi
18.	Potato yellow dwarf virus (PYDV)	Kartoshkaning sariq pakanalik kasalligi
19.	Potato yellow vein virus (PYVV)	Kartoshka barg tomirlari sarg'ayishi



20.	<i>Prunus necrotic ringspot virus</i> (PNRSV)	Danak mevali daraxtlarning nekrotik dog'lanishi
21.	Rose wilt agent (ROW000)	Atirgul vilti
22.	<i>Stralarivirus fragariae</i> (SLRSV)	Qulupnay latent doiraviy dog'lanish virusi
23.	<i>Strawberry latent C virus</i> (STLCV)	Qulupnay C latent virusi
24.	<i>Tomato spotted wilt virus</i> (TSWV)	Pomidorning bronzali dog'lanish kasalligi
25.	<i>Grapevine fanleaf virus</i> (GFLV)	Tokning qisqa bandli virus kasalligi
26.	<i>Grapevine fleck virus</i> (GFKV)	Tokning virusli dog'lanish kasalligi
27.	<i>Grapevine leafroll-associated viruses</i> (GLRaV-1)	Tok barglari bujmayish kasalligi 1-tur
28.	<i>Grapevine leafroll-associated viruses</i> (GLRaV-2)	Tok barglari bujmayish kasalligi 2-tur
29.	<i>Grapevine leafroll-associated viruses</i> (GLRaV-3)	Tok barglari bujmayish kasalligi 3-tur
30.	<i>Grapevine leafroll associated virus</i> (GLRaV-4)	Tok barglari bujmayish kasalligi 4-tur
31.	<i>Grapevine red blotch virus</i> (GRBV)	Tokning qizil dog'li virusi
32.	<i>Vitivirus alphavitis</i> (GVA)	Tok klosterovirusi (tok A virusi)
<b>III. Begona o'tlar</b>		
1.	<i>Acanthospermum hispidum</i> de Candolle	Qattiq yungli tikanli o't
2.	<i>Aeschynomene indica</i> Linnaeus	Hind eshinomenesi
3.	<i>Aeschynomene virginica</i> (Linnaeus) Britton, Sterns & Poggenburg	Virjiniya eshinomenesi
4.	<i>Ambrosia psilostachya</i> de Candolle.	Ko'p yillik ambroziya
5.	<i>Ambrosia trifida</i> Linnaeus	Uch bo'lakli ambroziya
6.	<i>Arceuthobium</i> spp	Omelalar
7.	<i>Bidens bipinnata</i> Linnaeus	It-tikanak
8.	<i>Cassia occidentalis</i> Linnaeus	G'arb kassiyasi
9.	<i>Cassia tora</i> Linnaeus	Tora kassiyasi
10.	<i>Cenchrus pauciflorus</i> Benth	Kamgulli senxrus (langarsimon)
11.	<i>Croton capitatus</i> Michaux	To'pgullik roton
12.	<i>Diodia teres</i> Walter	Jo'vasimon diodiya
13.	<i>Emex australis</i> Steinheil	Janubiy emeks
14.	<i>Emex spinosa</i> (Linnaeus) Campdera	Tikanli emeks
15.	<i>Euphorbia dentata</i> Michaux	Arrasimon sutlama
16.	<i>Euphorbia marginata</i> Pursh.	Hoshiyali sutlama
17.	<i>Nelanthus californicus</i> de Candolle	Kaliforniya kungaboqari
18.	<i>Nelanthus ciliaris</i> de Candolle	Kiprikli kungaboqar
19.	<i>Nelanthus lenticularis</i> Douglas	Yovvoyi kungaboqar
20.	<i>Nelanthus petiolaris</i> Nuttall	Barg bandli kungaboqar
21.	<i>Nelanthus scaberrimus</i> Britton & A. Brown	Tukli kungaboqar
22.	<i>Nyctroctyle ranunculoides</i> Linnaeus	Ayiqtovonsimon suvyig'ar
23.	<i>Ipomoea hederacea</i> (Linnaeus) Jacquin.	Pechaksimon ipomeya

24.	<i>Iva</i> spp.	Sassiq kakra (xammaturlari)
25.	<i>Jacquemontia tamnifolia</i> (Linnaeus) Grisebach	Yuraksimon bargli jakumont o'ti
26.	<i>Polygonum pensilvanicum</i> Linnaeus	Pensilvaniya suv murchi
27.	<i>Raimania laciniata</i> Nill (Oenotera)	Raymaniya
28.	<i>Sesbania exaltata</i> (Raf) Cory	Mayda dukkakli sesbaniya
29.	<i>Sesbania macrocarpa</i> Muhl et rafin	Yirik dukkakli sesbaniya
30.	<i>Sicyos angulatus</i> Linnaeus	Burchak bargli qovoqsimon o't
31.	<i>Sida spinosa</i> Linnaeus	Tikanli sida
32.	<i>Solanum carolinense</i> Linnaeus	Karolina ituzumi
33.	<i>Solanum elaeagnifolium</i> Cavanilles	Chiziq bargli ituzum
34.	<i>Solanum rostratum</i> Dunal	Tikanli ituzum
35.	<i>Solanum triflorum</i> Linnaeus	Uch gulli ituzum
36.	<i>Striga</i> spp.	Strigalar
<b>A2. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida tarqalgan karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlar</b>		
<b>I. Zararkunandalar</b>		
1.	<i>Delia antiqua</i> (Meigen)	Piyoz pashshasi
2.	<i>Dialeurodes citri</i> (Ashmead)	Sitrus oqqanoti
3.	<i>Grapholita molesta</i> (Busck)	Sharq mevaxo'ri
4.	<i>Leptinotarsa decemlineata</i> Say	Kolorado qo'ng'izi
5.	<i>Phyllocnistis citrella</i> Stainton	Sitrus inli kuyasi
6.	<i>Phthorimaea operculella</i> (Zeller)	Kartoshka kuyasi
7.	<i>Pseudococcus comstocki</i> Kuwana	Komstok qurti
8.	<i>Quadraspidiotus perniciosus</i> (Comstock)	Kaliforniya qalqondori
<b>II. Begona o'tlar</b>		
1.	<i>Acroptilon repens</i> (Linnaeus) de Candolle	Sudraluvchi kakra (pushtirang kakra)
2.	<i>Ambrosia artemisiifolia</i> Linnaeus	Ermonbargli ambroziya
3.	<i>Cuscuta</i> spp.	Zarpechaklar
<b>III. Virus kasalliklari</b>		
1.	Tomato brown rugose fruit virus (ToBRFV)	Pomidor mevalarining jigarrang bujmayish kasalligi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MARKAZIY BANKI BOSHQARUVI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOLIQ QO‘MITASINING  
QARORI

**12** “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida\*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
15-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2342-12*

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF–132-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2011-yil 12-dekabrda 35/4, 82 va 2011-41-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi qaroriga (ro‘yxat raqami 2342, 2012-yil 15-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 11-son, 127-modda) ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Markaziy bank raisi**

**T. ISHMETOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 26-dekabr,  
321-B-12-son

**Iqtisodiyot va moliya vaziri**

**D. KUCHKAROV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 26-dekabr,  
211-son

\* Ushbu qaror «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 15-yanvarda e‘lon qilingan.

**Soliq qo‘mitasi raisi****Sh. KUDBIYEV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 24-dekabr,  
2024-26-son

O‘zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil  
26-dekabrda 321-B-12-son, Iqtisodiyot va  
moliya vazirligining 2024-yil 26-dekabrda  
211-son hamda Soliq qo‘mitasining 2024-yil  
24-dekabrda 2024-26-son qaroriga  
ILOVA

**“Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul  
mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani  
tasdiqlash haqida”gi qarorga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va  
qo‘shimcha**

1. Muqaddimadagi “hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar  
“, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan  
almashtirilsin.

2. Yo‘riqnomada:

a) 4-bandda:

birinchi xatboshidagi “3-so‘rovnomaning “taqiq” faylini “2” belgisi bilan”  
degan so‘zlar “so‘rovnomaning “taqiq” faylini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasiga”  
degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan  
almashtirilsin;

b) 5-bandning “a” kichik bandi quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan  
to‘ldirilsin:

“Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kommunal xizmatlari (elektr  
energiyasi, gaz ta‘minoti) uchun to‘lovlari navbatdan tashqari tartibda ularning  
asosiy hisobvarag‘iga kelib tushgan jami tushumlar doirasida amalga oshiriladi.”;

ikkinchi — oltinchi xatboshilar tegishli ravishda uchinchi — yettinchi  
xatboshilar deb hisoblansin.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МУДОФАА ВАЗИРЛИГИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯСИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР ВАЗИРЛИГИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ДАВЛАТ ХАВФСИЗЛИК ХИЗМАТИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИНИНГ  
ҚАРОРИ

**13** **Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида тинчлик ва уруш даврида тиббий кўриқдан ўтказишни ташкил этиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида\***

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил  
16 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3147-2*

Ўзбекистон Республикасининг «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги Қонуни ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 декабрдаги ПҚ–4076-сон «Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида тинчлик ва уруш даврида тиббий кўриқдан ўтказиш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги қарорига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, Миллий гвардияси, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги ва Соғлиқни сақлаш вазирлиги **қарор қилади:**

1. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, Миллий гвардияси, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги ҳамда Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2019 йил 14 мартдаги 11, 8, 5, 6, 23-ққ, 37-сон қарори (рўйхат рақами 3147, 2019 йил 3 апрель) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.04.2019 й., 10/19/3147/2889-сон) билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида тинчлик ва уруш даврида тиббий кўриқдан ўтказишни ташкил этиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомга иловага\*\* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

2. Мазкур қарор расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Мудофаа вазири**

**Ш. ХАЛМУХАМЕДОВ**

Тошкент ш.,  
2024 йил 18 декабрь,  
17-сон

\* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 16 январда эълон қилинган.

\*\* Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

**Миллий гвардия қўмондони**

**Р. ДЖУРАЕВ**

Тошкент ш.,  
2024 йил 5 декабрь,  
30-сон

**Фавқулодда вазиятлар вазири**

**А. КУЛДАШЕВ**

Тошкент ш.,  
2024 йил 9 декабрь,  
26-сон

**Ички ишлар вазири**

**П. БОБОЖОНОВ**

Тошкент ш.,  
2024 йил 7 декабрь,  
45-ққ-сон

**Соғлиқни сақлаш вазири**

**А. ХУДАЯРОВ**

Тошкент ш.,  
2024 йил 11 декабрь,  
17-сон

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**14** “Karantinga oid choralar amal qilishi davrida maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim muassasalarining faoliyati to’xtatilganda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va umumta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ota-onalariga yillik mehnat ta’tili berishning vaqtinchalik tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida\*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
15-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3227-1*

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2020-yil 25-martdagi 8-2020/B-son “Karantinga oid choralar amal qilishi davrida maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim muassasalarining faoliyati to’xtatilganda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va umumta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ota-onalariga yillik mehnat ta’tili berishning vaqtinchalik tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3227, 2020-yil 28-mart) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2020-y., 10/20/3227/0371-son) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Vazir**

Toshkent sh.,  
2024-yil 12-dekabr,  
18-2024/B-son

**B. ZAXIDOV**

*Kelishildi:*

**Kasaba uyushmalari  
Federatsiyasi raisi**

*2024-yil 15-noyabr*

**K. RAFIKOV**

---

\* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 16-yanvarda e’lon qilingan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**15** “Karantinga oid choralar amal qilish davrida xodimlarni masofaviy ish usulida, moslashuvchan ish grafigida yoki uyda ishlashga o‘tkazishning vaqtinchalik tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida\*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
15-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3228-1*

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2020-yil 25-martdagi 9-2020/B-son “Karantinga oid choralar amal qilish davrida xodimlarni masofaviy ish usulida, moslashuvchan ish grafigida yoki uyda ishlashga o‘tkazishning vaqtinchalik tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3228, 2020-yil 28-mart) (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.03.2020-y., 10/20/3228/0372-son) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Vazir**

**B. ZAXIDOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 12-dekabr,  
19-2024/B-son

*Kelishildi:*

**Kasaba uyushmalari  
Federatsiyasi raisi**

**K. RAFIKOV**

*2024-yil 15-noyabr*

---

\* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 16-yanvarda e‘lon qilingan.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING  
QARORI

**16** Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida\*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 916-3*

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000-yil 22-fevralda 466-son bilan tasdiqlangan Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 916, 2000-yil 5-aprel) (O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarning me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2000-y., 7-son) ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Rais**

**M. NURMURATOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 10-dekabr,  
37/16-son

---

\* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 17-yanvarda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil  
10-dekabrda 37/16-son qaroriga  
ILOVA

**Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha**

1. Nomi va 3.3-banddagi “me'yoriy hujjatlariga” degan so'zlar “qoidalariga” degan so'z bilan almashtirilsin.

2. 1.1-banddagi “bank operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan ichki me'yoriy hujjatlariga” degan so'zlar “ichki qoidalariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. 1.2-banddagi, 2-bo'limning nomidagi, 3.6 va 5.1-bandlardagi “me'yoriy hujjatlari” degan so'zlar “qoidalari” degan so'z bilan almashtirilsin.

4. 1.3 — 1.6-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1.3. Tijorat banklari va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

1.4. Tijorat banklarining ichki qoidalari banklarda samarali ichki nazorat tizimini yaratish, bank faoliyatiga xos bo'lgan tavakkalchiliklarni boshqarish (tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish, kamaytirish va ular haqida xabardor etish), xavfsiz va sog'lom bank faoliyatini yuritishni, bank qonunchiligiga to'liq rioya etilishini ta'minlash, bank faoliyatini boshqarish va bank operatsiyalarini amalga oshirishni qulaylashtirish maqsadida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

1.5. Tijorat banklari o'z vakolatlari doirasida faqat mazkur bank uchun majburiy xarakterga ega bo'lgan ichki qoidalarini strategiya, nizom, tartib, qoidalar yoki siyosat shaklida qabul qiladilar.

1.6. Tijorat banklarining ichki qoidalari bank kuzatuv kengashi (bundan buyon matnda kengash deb yuritiladi) yoki bank boshqaruvi (bundan buyon matnda boshqaruv deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi.”

5. 1.7-band o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

6. 1.8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1.8. Bank ichki qoidalarining qonunchilik hujjatlariga mos kelishi bo'yicha javobgarlik kengash va boshqaruv zimmasiga yuklanadi.”

7. 2.1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2.1. Tijorat banklari ishlab chiqqan ichki qoidalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Tijorat banklari ichki qoidalarida fuqarolarning qonun bilan himoyalangan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga zid normalar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.”

8. 2.2-banddagi “me'yoriy hujjatda” degan so'zlar “qoidada” degan so'z bilan almashtirilsin.

9. 2.3 va 2.7-bandlardagi “me'yoriy hujjatning” degan so'zlar “qoidaning” degan so'z bilan almashtirilsin.

10. 2.4-banddagi “me’yoriy hujjat” degan soʻzlar “qoida” degan soʻz bilan almashtirilsin.

11. 2.5 va 2.6-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2.5. Ichki qoidalar rasmiy tilda aniq va ravshan bayon qilingan boʻlishi lozim. Turlicha sharhlash imkoniyatlarini istisno qilish maqsadida ichki qoidada ishlatilayotgan tushuncha va iboralar ularning qonunchilik hujjatlarida qabul etilgan maʼnolari bilan bir xil shaklda qoʻllaniladi.

2.6. Ichki qoidada qonunchilik hujjatlarida belgilangan normalarning soʻzma-soʻz qaytarilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Ichki qoidalarning matnida amaldagi qonunchilik hujjatlariga havola etishga istisno tariqasidagina ruxsat etiladi.

Mazkur ichki qoidaning boshqa bandlariga, shuningdek Markaziy bank va boshqa vazirlik, idoralar tomonidan avval qabul qilingan me’yoriy hujjatlarga havola qilishga faqatgina ularning oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatish yoki takrorlashlarga yoʻl qoʻymaslik maqsadidagina yoʻl qoʻyiladi.”

12. 2.8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2.8. Agar ichki qoidada roʻyxatlar, jadvallar, grafiklar, sxemalar, hujjat va blanklar namunalari keltirish zarurati boʻlsa, ular, qoidaga koʻra, ilovalarda joylashtiriladi. Zarur hollarda, ichki qoidaning tegishli bandlarida ularga havola etiladi.”

13. 2.9-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2.9. Ichki qoida quyidagi rekvizitlarga ega boʻlishi lozim:”;

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“mazkur bankning muhri bilan tasdiqlangan hamda kengash va (yoki) boshqaruv aʼzolarining imzolari.”

14. 3-boʻlimning nomidagi “me’yoriy hujjatlarini” degan soʻzlar “qoidalarini” degan soʻz bilan almashtirilsin.

15. 3.1 — 3.3-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3.1. Ichki qoidalar bankning tegishli tarkibiy boʻlinmasida ishlab chiqilganidan soʻng, bankning yuridik xizmati tomonidan, ushbu hujjatning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini taʼminlash maqsadida huquqiy ekspertizadan oʻtkaziladi va bu borada yuridik xulosa tayyorlanib, tegishli yigʻmajidlarga tikib qoʻyiladi.

Yuridik xulosada ichki qoidaning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi aks ettirilishi lozim.

Tijorat banklarining ichki qoidalarining, ularning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi toʻgʻrisida yuridik xizmatning xulosasi va rozilik imzosi (vizasi) boʻlmasa, qabul qilinishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

3.2. Ichki qoida, agar unda boshqa muddat koʻrsatilgan boʻlmasa, kengash yoki boshqaruv tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

3.3. Tijorat banklari ichki qoidalariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar bankning tegishli boshqaruv organlarining qarori asosida kiritiladi. Ushbu oʻzgartirish va qoʻshimchalar asosiy ichki qoida rasmiylashtirilgan tartibda rasmiylashtirilishi lozim.”

16. 3.4-banddagi “me’yoriy hujjatiga” degan soʻzlar “qoidasiga” degan soʻz bilan almashtirilsin.

17. 3.5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3.5. Markaziy bank tomonidan bank nazoratini amalga oshirish jarayonida tijorat banklari ichki qoidalari qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lgan yoxud ularning talablariga to‘liq javob bermaslik hollari aniqlangan taqdirda, Markaziy bank ushbu ichki qoidalarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni bekor qilish to‘g‘risida kengash va (yoki) boshqaruvga ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatma beradi.”.

18. 3.7-bandda:

birinchi xatboshidagi “me‘yoriy hujjatlarning” degan so‘zlar “qoidalarning” degan so‘z bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so‘ng 15 kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.”.

19. Quyidagi mazmundagi 5.1<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“5.1<sup>1</sup>. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**17** Pochta aloqasida frankirlash mashinasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida\*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
15-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2008-3*

O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktorining 2009-yil 25-avgustdagi 266-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2008, 2009-yil 19-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 39-son, 426-modda) bilan tasdiqlangan Pochta aloqasida frankirlash mashinasidan foydalanish tartibi to‘g‘risida nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Vazirning birinchi o‘rinbosari**

**O. PEKOS**

Toshkent sh.,  
2025-yil 4-yanvar,  
276-mh-son

*Kelishildi:*

*Raqobatni rivojlantirish va  
iste‘molchilar huquqlarini himoya  
qilish qo‘mitasi raisi*

**H. TURAXUJAYEV**

*2024-yil 6-dekabr*

---

\* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 17-yanvarda e‘lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi  
raqamli texnologiyalar vazirining 2025-yil  
4-yanvardagi 276-mh-son buyrug'iga  
ILOVA

### **Pochta aloqasida frankirlash mashinasidan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Frankirlash mashinalaridan pochta aloqasi milliy operatorining (bundan buyon matnda milliy operator deb yuritiladi) filiallari, pochta aloqasi obyektlari yozma xat-xabarlarini qabul qilishda, shuningdek pochta aloqasi foydalanuvchilari (bundan buyon matnda foydalanuvchilar deb yuritiladi) (faqat yuridik shaxslar) shartnoma asosida milliy operatorning filiallari, pochta aloqasi obyektlari (pochta aloqasi bog'lamalari, pochтамtlar)ning bevosita nazorati ostida foydalanishi mumkin.”.

2. 3-bandning “v” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“v) yozma xat-xabarlarini qabul qilishni amalga oshiradigan milliy operatorning filiali (bundan buyon matnda filial deb yuritiladi) yoki pochta aloqasi obyektining nomi va qabul qilish sanasi bo'lgan taqvim shtempel tamg'asi;”.

3. 4-bandda:

birinchi xatboshidagi “O'zbekiston pochтasi” OAJning” degan so'zlar “milliy operatorning” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “O'zbekiston pochтasi” OAJ” degan so'zlar “milliy operator” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

4. 5-banddagi “O'zbekiston pochтasi” OAJ” degan so'zlar “milliy operator” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

5. 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Yozma xat-xabarlarini qabul qilish uchun filiallar, pochta aloqasi obyektlari tomonidan foydalaniladigan frankirlash mashinalari manzil tamg'asi o'rniga milliy operator logotipiga ega bo'lishi mumkin.”.

6. 7-band va 11-bandlarning birinchi xatboshilaridagi “Pochta aloqasining hududiy tashkiloti” degan so'zlar “Filial” degan so'z bilan almashtirilsin.

7. 9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Frankirlash mashinalaridan foydalanishga, ular ro'yxatga olinganidan hamda filial yoki pochta aloqasi obyekti (pochta aloqasi bog'lamasi, pochтамt) bilan shartnoma tuzilganidan keyin yo'l qo'yiladi. Frankirlash mashinalarining mulkdori hisoblangan filiallar va pochta aloqasi obyektlari (pochta aloqasi bog'lamalari, pochтамtlar) uchun shartnoma tuzish talab etilmaydi.”.

8. 10-banddagi “pochta aloqasining hududiy tashkilotlari” degan so'zlar “filiallar” degan so'z bilan almashtirilsin.

9. 13, 16 — 21-bandlar va 2-ilovadagi “pochta aloqasining hududiy tashkiloti” degan so'zlar “filial” degan so'z bilan almashtirilsin.

10. 14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Milliy operator tomonidan frankirlash mashinalari ijaraga berilgan taqdirda, mashinadan foydalanish uchun shartnoma filial yoki pochta aloqasi

obyekti (pochta aloqasi bog‘lamasi, pochtaamt) va ijarachi (foydalanuvchi) o‘rtasida tuziladi. Bunda foydalanuvchi, uning pochta manzili tamg‘asini tayyorlash uchun buyurtma berishi kerak.”.

11. 15-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Filial yoki pochta aloqasi obyekti (pochta aloqasi bog‘lamasi, pochtaamt) vakili tomonidan foydalanuvchining vakili ishtirokida milliy operator taqvim shtempeli va tamg‘asi frankirlash mashinasiga qo‘yiladi. Bunda, frankirlash mashinasi hisoblagichining ko‘rsatkichlari qayd etiladi.”.

12. 1-ilova mazkur o‘zgartirishlarning ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

Pochta aloqasida frankirlash mashinasidan  
foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
kiritilayotgan o‘zgartirishlarga  
ILOVA

“Pochta aloqasida frankirlash mashinasidan  
foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
1-ILOVA

*Ro‘yxatga olish varaqchasining namunasi*

\_\_\_\_\_ -son Ro‘yxatga olish varaqchasi

(mashina tipi, tayyorlovchi-zavod)

Zavod (seriya, hisobga olish) nomeri \_\_\_\_\_ Chiqarilgan sana

Muvofiqlik sertifikati \_\_\_\_\_

(sertifikat raqami)

### 1. Frankirlash mashinasi foydalanuvchisining rekvizitlari

Foydalanuvchining nomi \_\_\_\_\_

Pochta manzili \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ Telefon \_\_\_\_\_

Bank rekvizitlari \_\_\_\_\_

Frankirlash mashinasidan foydalanish uchun mas‘ul xodim

Rahbar imzosi

**2. Filial yoki pochta aloqasi obyektı (pochta aloqasi bog‘lamasi, pochtamt) rekvizıtları**

Filial yoki pochta aloqasi obyektı (pochta aloqasi bog‘lamasi, pochtamt) nomi

Pochta manzili \_\_\_\_\_

Frankirlash mashinasidan foydalanish uchun filial yoki pochta aloqasi obyektı (pochta aloqasi bog‘lamasi, pochtamt) mas‘ul xodimi \_\_\_\_\_

Foydalanish uchun shartnoma 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-son

Foydalanishga kiritish sanasi \_\_\_\_\_

Filial yoki pochta aloqasi obyektı (pochta aloqasi bog‘lamasi, pochtamt) rahbarining imzosi \_\_\_\_\_

”.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
O‘ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING  
QARORI

**18** “Metrologiya tekshiruvidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tibbiyot uchun mo‘ljallangan o‘lchash vositalari va sinash vositalarining ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorning 2-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida\*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
15-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2916-1*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PF–6240-son “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2024-yil 27-fevraldagi PF–41-son “Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2017-yil 31-iyuldagi K-2, 102-son “Metrologiya tekshiruvidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tibbiyot uchun mo‘ljallangan o‘lchash vositalari va sinash vositalarining ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining (ro‘yxat raqami 2916, 2017-yil 22-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 34-son, 906-modda) 2-bandidagi “O‘zstandart” degan so‘z “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston texnik jihatdan  
tartibga solish agentligi direktori**

**A. JUMANAZAROV**

Toshkent sh.,  
2025-yil 7-yanvar,  
K-3-son

**Sog‘liqni saqlash vaziri**

**A. XUDAYAROV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 27-dekabr,  
20-son

\* Ushbu qaror «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 17-yanvarda e‘lon qilingan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**19** O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy norma-  
tiv-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish haqida\*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
15-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3598*

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentabrdagi O‘RQ–957-son  
“Ma‘muriy islohotlar doirasida ta‘lim sohasida davlat boshqaruvi  
takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun  
hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq  
**buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga  
muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Vazir**

**K. SHARIPOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 12-dekabr,  
464-son

\* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 17-yanvarda e‘lon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi  
oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining  
2024-yil 12-dekabrda 464-son buyrug‘iga  
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-  
huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazining 2008-yil 30-aprelda 01-148Q/Q, 118, 16/QQ-son qarori (ro‘yxat raqami 1812, 2008-yil 19-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 20-21-son, 189-modda) bilan tasdiqlangan Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomda:

4-bandning beshinchi xatboshisidagi “muassasasining” degan so‘z “tashkilotining” degan so‘z bilan almashtirilsin;

14-banddagi “muassasalarida” degan so‘z “tashkilotlarida” degan so‘z bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2009-yil 22-maydagi 160-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘ida (ro‘yxat raqami 1963, 2009-yil 5-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 23-son, 267-modda):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalari” degan so‘z “tashkilotlari” degan so‘z bilan almashtirilsin;

2) Nizomda:

nomi, muqaddima, 1 va 18-bandlardagi “muassasalari” degan so‘z “tashkilotlari” degan so‘z bilan almashtirilsin;

2-banddagi “muassasasidagi” degan so‘z “tashkilotidagi” degan so‘z bilan almashtirilsin;

5-bandning ikkinchi xatboshisi, 8, 10, 12, 16, 17 va 21-bandlar, 23-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilari hamda 30-banddagi “muassasasi” degan so‘z “tashkiloti” degan so‘z bilan almashtirilsin;

9-banddagi “muassasalari” va “muassasasi” degan so‘zlar tegishli ravishda “tashkilotlari” va “tashkiloti” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta’lim tashkilotining idoraviy mansubligidan qat’i nazar, ushbu ta’lim tashkilotida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislaridan tegishli oliy ta’lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug‘i bilan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta’lim tashkilotida tegishli yo‘nalish (mutaxassislik)

bo'yicha ikki martadan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.”;

13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.”;

15-bandda:

birinchi xatboshidagi “muassasasi” degan so'z “tashkiloti” degan so'z bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshidagi “muassasalarining” va “muassasasining” degan so'zlar tegishli ravishda “tashkilotlarining” va “tashkilotining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

27-bandda:

birinchi xatboshidagi “muassasasi” degan so'z “tashkiloti” degan so'z bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “muassasasining” va “muassasalarining” degan so'zlar tegishli ravishda “tashkilotining” va “tashkilotlarining” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009-yil 11-iyundagi 204-son “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'ida (ro'yxat raqami 1981, 2009-yil 10-iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 28-son, 330-modda):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin;

2) muqaddimadagi “muassasalari” degan so'z “tashkilotlari” degan so'z bilan almashtirilsin;

3) Nizomda:

nomi, 19-bandning uchinchi xatboshisi, 21-band, 23-bandning ikkinchi xatboshisi, 24-bandning ikkinchi va to'rtinchi xatboshilari, 25-band, 29-bandning ikkinchi xatboshisi, 32-bandning birinchi xatboshisidagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin;

muqaddimadagi “muassasalarida” va “muassasasi” degan so'zlar tegishli ravishda “tashkilotlarida” va “tashkiloti” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

4-banddagi “muassasasining” degan so'z “tashkilotining” degan so'z bilan almashtirilsin;

6-bandda:

to'rtinchi xatboshidagi “muassasalari” degan so'z “tashkilotlari” degan so'z bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “muassasasi” degan so'z “tashkiloti” degan so'z bilan almashtirilsin;

6<sup>1</sup>, 8 va 34-bandlardagi “muassasasi” degan soʻz “tashkiloti” degan soʻz bilan almashtirilsin;

16-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Namunaviy mezonlarga muvofiq mutaxassislik fanlar boʻyicha tayanch oliy taʼlim tashkilotlari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy taʼlim tashkiloti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy taʼlim tashkilotlariga yetkaziladi.”.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi markazi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2009-yil 4-sentabrdagi 39/QQ va 27/QQ-son “Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida yakuniy davlat attestatsiyasini oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida (roʻyxat raqami 2011, 2009-yil 6-oktabr) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2009-y., 41-son, 443-modda):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalarida” degan soʻz “tashkilotlarida” degan soʻz bilan almashtirilsin;

2) Nizomda:

nomi, 2 va 6-bandlardagi “muassasalarida” degan soʻz “tashkilotlarida” degan soʻz bilan almashtirilsin;

muqaddimadagi “muassasalari” degan soʻz “tashkilotlari” degan soʻz bilan almashtirilsin;

1-bandda:

birinchi xatboshidagi “muassasalarida” va “muassasalari” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkilotlarida” va “tashkilotlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

toʻrtinchi xatboshidagi “muassasasini” degan soʻz “tashkilotini” degan soʻz bilan almashtirilsin;

3 va 21-bandlardagi “muassasasida” degan soʻz “tashkilotida” degan soʻz bilan almashtirilsin;

4-bandning yettinchi xatboshisi, 26-band va 85-bandning ikkinchi xatboshisidagi “muassasasini” degan soʻz “tashkilotini” degan soʻz bilan almashtirilsin;

11, 25, 38 va 54-bandlar, 80-bandning birinchi va toʻrtinchi xatboshilari, 86, 87 va 89-bandlardagi “muassasasi” degan soʻz “tashkiloti” degan soʻz bilan almashtirilsin;

14-banddagi “muassasalarining” va “muassasasining” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkilotlarining” va “tashkilotining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

15-bandda:

birinchi xatboshidagi “muassasalarining” va “muassasasining” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkilotlarining” va “tashkilotining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

toʻrtinchi xatboshidagi “muassasasi” degan soʻz “tashkiloti” degan soʻz bilan almashtirilsin;

18-banddagi “muassasasi” va “muassasalari” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkiloti” va “tashkilotlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

19 va 20-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. DAK raisi yakuniy attestatsiya boshlanishidan kamida ikki hafta oldin bir yil (kalendar yil) muddatga hududiy kasb-hunar ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining (vazirlik, idora yoki oliy ta’lim tashkilotlari tasarrufidagi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tashkilotlari uchun shu vazirlik, idora yoki oliy ta’lim tashkiloti rahbarining), DAK a’zolari esa, ta’lim tashkiloti direktorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

20. DAK raisi akademik litseylarda tayanch oliy ta’lim tashkiloti rektori bilan kelishilgan holda mazkur oliy ta’lim tashkilotining professor-o‘qituvchilari tarkibidan va kasb-hunar kollejarida ish beruvchi tashkilotlar, shuningdek, turdosh oliy ta’lim tashkilotlarining professor-o‘qituvchilari vakillari tarkibidan tanlanadi.”;

22, 29, 51, 57, 58, 59 va 77-bandlardagi “muassasasining” degan so‘z “tashkilotining” degan so‘z bilan almashtirilsin;

26-band va 85-bandning ikkinchi xatboshisidagi “muassasasini” degan so‘z “tashkilotini” degan so‘z bilan almashtirilsin;

30-bandning ikkinchi xatboshisidagi “muassasasining” va “muassasasi” degan so‘zlar tegishli ravishda “tashkilotining” va “tashkiloti” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

32 va 90-bandlardagi “muassasalariga” degan so‘z “tashkilotlariga” degan so‘z bilan almashtirilsin;

37, 74 va 91-bandlardagi “muassasalarining” degan so‘z “tashkilotlarining” degan so‘z bilan almashtirilsin;

42-banddagi “muassasasining” va “muassasalarida” degan so‘zlar tegishli ravishda “tashkilotining” va “tashkilotlarida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2015-yil 30-oktabrdagi 9-2015-son “Oliy ta’lim muassasalari magistratura mutaxassisliklari talabalari tomonidan stajirovkani o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘ida (ro‘yxat raqami 2734, 2015-yil 26-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 47-son, 604-modda):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalari” degan so‘z “tashkilotlari” degan so‘z bilan almashtirilsin;

2) Nizomda:

nomi va muqaddimadagi “muassasalari” degan so‘z “tashkilotlari” degan so‘z bilan almashtirilsin;

2-bandning uchinchi xatboshisidagi “muassasalariga” degan so‘z “tashkilotlariga” degan so‘z bilan almashtirilsin;

24-banddagi “muassasasi” degan so‘z “tashkiloti” degan so‘z bilan almashtirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017-yil 5-sentabrdagi 11-2017-son “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini masofadan o‘qitish ta’lim usullari orqali qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” buyrug‘ida (ro‘yxat raqami 2936, 2017-yil 23-oktabr) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 23.10.2017-y., 10/17/2936/0162-son):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalarining” degan so‘z “tashkilotlarining” degan so‘z bilan almashtirilsin;

2) Nizomda:

nomi, muqaddima va 1-banddagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

6-bandning ikkinchi xatboshisidagi “muassasasi” degan soʻz “tashkiloti” degan soʻz bilan almashtirilsin.

7. Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining 2017-yil 5-sentabrdagi 12-2017-son “Oliy taʼlim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarining bitiruv (loyiha) ishini tayyorlash va himoyaga taqdim etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrugʻida (roʻyxat raqami 2937, 2017-yil 23-oktabr) (Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 23.10.2017-y., 10/17/2937/0163-son):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

2) Nizomda:

nomi, 1-band va 2-bandning birinchi xatboshisidagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi 242-son “Oliy taʼlim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan oliy taʼlim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarining bitiruv (loyiha) ishini tayyorlash va himoyaga taqdim etish tartibini belgilaydi.”;

ilova belgisidagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

ilova matnidagi “muassasasining” degan soʻz “tashkilotning” degan soʻz bilan almashtirilsin.

8. Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining 2017-yil 5-sentabrdagi 13-2017-son “Oliy taʼlim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida pedagogik (malakaviy) amaliyotni tashkil etish va oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrugʻida (roʻyxat raqami 2938, 2017-yil 23-oktabr) (Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 23.10.2017-y., 10/17/2938/0164-son):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

2) Nizomda:

nomi, 1, 2 va 3-bandlardagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi 242-son “Oliy taʼlim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan oliy taʼlim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash

va malakasini oshirish kurslaridagi pedagogik (malakaviy) amaliyotni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini belgilaydi.”;

18-band va 20-bandning beshinchi xatboshisidagi “muassasalarida” degan soʻz “tashkilotlarida” degan soʻz bilan almashtirilsin;

27-band va 31-bandning birinchi xatboshisidagi “muassasasi” degan soʻz “tashkiloti” degan soʻz bilan almashtirilsin;

42-bandning ikkinchi xatboshisidagi “muassasalaridan” degan soʻz “tashkilotlaridan” degan soʻz bilan almashtirilsin;

1 va 2-ilovalarning ilova belgisidagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirining 2018-yil 4-iyundagi 14/6-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3034, 2018-yil 5-iyul) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2018-y., 10/18/3034/1474-son) bilan tasdiqlangan Davlat ilmiy dasturlari doirasida yaratilgan intellektual mulk huquqlari (patentlar)ni xorijda ro'yxatdan o'tkazish va qo'llab-quvvatlash xarajatlarini to'lash tartibi to'g'risidagi nizomda:

3-band va 5-bandning ikkinchi xatboshisidagi “muassasalari” degan soʻz “tashkilotlari” degan soʻz bilan almashtirilsin;

9-banddagi “muassasasi” degan soʻz “tashkiloti” degan soʻz bilan almashtirilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'ida (ro'yxat raqami 3069, 2018-yil 26-sentabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2018-y., 10/18/3069/1965-son):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalarida” degan soʻz “tashkilotlarida” degan soʻz bilan almashtirilsin;

2) Nizomda:

nomidagi “muassasalarida” degan soʻz “tashkilotlarida” degan soʻz bilan almashtirilsin;

muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi.”;

1-banddagi “muassasalariga” degan soʻz “tashkilotlariga” degan soʻz bilan almashtirilsin;

2, 5, 9, 11, 14-bandlar, 19-bandning birinchi xatboshisi, 44-band va ilova belgisidagi “muassasalarida” degan soʻz “tashkilotlarida” degan soʻz bilan almashtirilsin;

3-banddagi “muassasalari” degan soʻz “tashkilotlari” degan soʻz bilan almashtirilsin;

13-banddagi “muassasasining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;



18-bandning to'rtinchi xatboshisidagi “muassasalarining” degan so'z “tashkilotlarining” degan so'z bilan almashtirilsin;

20-banddagi “muassasasida” va “muassasasining” degan so'zlar tegishli ravishda “tashkilotida” va “tashkilotining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

25-bandning uchinchi xatboshisi, 27, 42 va 43-bandlardagi “muassasasi” degan so'z “tashkiloti” degan so'z bilan almashtirilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 9-noyabrdagi 27-mh va 38-2021-son “Davlat oliy ta'lim muassasalarida yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun ularning moddiy-texnika bazasi, professor-o'qituvchilari va o'quv-metodik ta'minotiga qo'yiladigan minimal talablarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarorida (ro'yxat raqami 3335, 2021-yil 26-noyabr) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.11.2021-y., 10/21/3335/1100-son):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin;

2) Ilovada:

nomidagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin;

1-pozitsiyadagi “muassasasining” degan so'z “tashkilotining” degan so'z bilan almashtirilsin;

izohda:

ikkinchi xatboshidagi “muassasasi” degan so'z “tashkiloti” degan so'z bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi xatboshidagi “muassasalariga” degan so'z “tashkilotlariga” degan so'z bilan almashtirilsin.

12. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 30-dekabrdagi 53-2021-son “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sohalarini (ta'lim yo'nalishlari) bo'yicha bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlarini tasdiqlash to'g'risida”gi buyrug'ida (ro'yxat raqami 3345, 2022-yil 24-yanvar) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.01.2022-y., 10/22/3345/0063-son):

1) nomi va 1-banddagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin;

2) 1-ilovada:

nomidagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin;

izoh qismida:

1-banddagi “muassasalarida” va “muassasasi” degan so'zlar tegishli ravishda “tashkilotlarida” va “tashkiloti” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2-banddagi “muassasalarida” va “muassasalari” degan so'zlar tegishli ravishda “tashkilotlarida” va “tashkilotlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3-banddagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ИҚТИСОДИЁТ ВА МОЛИЯ ВАЗИРИНИНГ  
БУЙРУҒИ

**20** **Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрини шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида\***

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил  
17 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3599*

Ўзбекистон Республикасининг «Давлат харидлари тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ **буюраман:**

1. Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрини шакллантириш тартиби тўғрисидаги низом иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси, Коррупцияга қарши курашиш агентлиги, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил ҳамда Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси билан келишилган.

3. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ўтгач кучга кирилади.

**Вазир**

**Д. КУЧКАРОВ**

Тошкент ш.,  
2024 йил 6 декабрь,  
200-сон

*Келишилди:*

*Рақобатни ривожлантириш ва  
истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя  
қилиш қўмитаси раиси*

**Ҳ. ТУРАХУЖАЕВ**

*2024 йил 20 ноябрь*

*Коррупцияга қарши курашиш  
агентлиги директори*

**А. БУРХАНОВ**

*2024 йил 11 ноябрь*

---

\* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 17 январда эълон қилинган.

*Тадбиркорлик субъектларининг  
ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини  
ҳимоя қилиш бўйича вакил*

*Д. КАСИМОВ*

*2024 йил 29 ноябрь*

*Савдо-саноат  
палатаси раиси*

*Д. ВАХАБОВ*

*2024 йил 7 ноябрь*

Ўзбекистон Республикаси  
иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил  
6 декабрдаги 200-сон буйруғига  
ИЛОВА

**Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрини  
шакллантириш тартиби тўғрисидаги  
НИЗОМ**

Ушбу Низом Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрини (бундан буён матнда Реестр деб юритилади) шакллантириш ва юритиш тартибини белгилайди.

**1-боб. Умумий қоидалар**

1. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

**давлат харидлари соҳасидаги ваколатли орган** (бундан буён матнда ваколатли орган деб юритилади) — Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги;

**инсофсиз ижрочи** — Реестрга киритилган харид қилиш тартиб-таомиллари иштирокчиси (бундан буён матнда иштирокчи деб юритилади) ёки голиби (бундан буён матнда голиб деб юритилади) ёхуд давлат харидларининг ижрочиси (бундан буён матнда ижрочи деб юритилади) ҳисобланган Ўзбекистон Республикасининг резиденти ёки норезиденти бўлган жисмоний ёки юридик шахс;

**Реестрга киритиш юзасидан мурожаатларни кўриб чиқиш бўйича ишчи комиссия** (бундан буён матнда ишчи комиссия деб юритилади) — иштирокчи ёки ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритиш юзасидан мурожаатларни кўриб чиқиш ва хулоса бериш бўйича ишчи орган;

**муурожаатчи** — иштирокчи ёки ижрочини Реестрга киритиш юзасидан ёзма ёки электрон шаклда мурожаат қилувчи давлат буюртмачиси ва (ёки) харид қилиш тартиб-таомиллари устидан давлат назоратини амалга оширувчи ваколатли давлат органлари, шунингдек жисмоний ва юридик шахслар.

## 2-боб. Реестрни шакллантириш асослари ва мурожаат қилиш тартиби

2. Реестр ваколатли орган томонидан шакллантириладиган рўйхатдан иборат бўлиб, унга қуйидаги маълумотлар киритилади:

харид қилиш тартиб-таомиллари якунлари бўйича белгиланган шартлар асосида давлат буюртмачиси билан шартнома тузишни ва давлат харидларини амалга оширишни рад этган ёки бошқача усулда бўйин товлаган харид қилиш тартиб-таомиллари қолиблари тўғрисидаги;

мажбуриятларни бажармаганликда ёхуд тегишли тарзда бажармаганликда белгиланган тартибда айбдор деб топилган ижрочилар ҳақидаги, бундан мажбуриятлар бартараф этиб бўлмайдиган кучлар оқибатида бажарилмаган ёки тегишли тарзда бажарилмаган ҳоллар мустасно;

давлат харидлари жараёнида ёлгон ёки сохта ҳужжатларни тақдим этган, айна битта лотда иштирок этган аффилиланган шахслар ёки манфаатлар тўқнашуви тўғрисида маълумотларни очиб бермаган иштирокчилар тўғрисидаги;

суднинг қарорига кўра фирибгарлик, сохталаштириш ва коррупция билан боғлиқ жиноятларни содир этганликда айбдор деб топилган ижрочилар тўғрисидаги.

3. Реестрга инсофсиз ижрочилар тўғрисидаги маълумотлар қуйидагилар асосида киритилади:

ваколатли органнинг иштирокчи ёки ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритиш тўғрисидаги қарорига мувофиқ;

Давлат харидлари соҳасидаги шикоятларни кўриб чиқиш бўйича комиссиянинг ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритиш тўғрисидаги қарорига мувофиқ;

харид қилиш тартиб-таомиллари якунлари бўйича белгиланган шартлар асосида давлат буюртмачиси билан шартнома тузишни ва давлат харидларини амалга оширишни рад этган ёки бошқача усулда бўйин товлаган қолиб (захирадаги қолиб бундан мустасно) тўғрисидаги маълумотлар автоматик тарзда Махсус ахборот портали орқали.

4. Мурожаатчи ваколатли органга иштирокчи ёки ижрочини Реестрга киритиш юзасидан ёзма ёки электрон шаклда ариза билан мурожаат қилиши мумкин.

Мурожаатчи аризасига иштирокчи ёки ижрочини Реестрга киритиш учун асос бўлган ҳужжатларни, шунингдек суднинг тегишли қарорини (агар мавжуд бўлса) илова қилади.

5. Мурожаатчи ваколатли органга келиб тушган кундан бошлаб ўн беш кун ичида кўриб чиқилади ва кўриб чиқиш натижаси бўйича ушбу муддат ичида мурожаатчига ёзма ёки электрон шаклда хабар берилади.

## 3-боб. Ишчи комиссия ва Реестрни шакллантириш тартиби

6. Иштирокчи ёки ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга кири-

тиш тўғрисидаги қарор ваколатли органнинг раҳбари ёки унинг вазифалари юкланган ўринбосари томонидан қабул қилинади.

Бунда, Реестрга киритиш тўғрисидаги қарор қабул қилинишига иштирокчи ёки ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритиш ҳақидаги ишчи комиссиянинг хулосаси асос бўлади. Ишчи комиссия томонидан тегишли хулоса ўн кун муддатда тайёрланади.

7. Ишчи комиссия таркиби ваколатли орган раҳбарининг буйруғи билан ваколатли орган раҳбарининг ўринбосари ва ходимлари орасидан камида 7 кишидан иборат таркибда шакллантирилади.

8. Ишчи комиссия фаолиятини ташкил этиш, йиғилишларини ўтказиш ва уларга раҳбарлик қилиш ишчи комиссия раиси томонидан амалга оширилади.

Ишчи комиссия йиғилиши учун ташкилий тайёргарликни таъминлаш комиссия котиби зиммасига юкланади.

Ишчи комиссия йиғилишлари заруратга кўра ўтказилади. Йиғилишларда кун тартибига киритилган масалалар юзасидан коллегиал тарзда хулосалар қабул қилинади.

Ишчи комиссия йиғилишлари аъзоларнинг камида учдан икки қисми иштирок этганда ваколатли ҳисобланади.

Ишчи комиссия хулосалари йиғилишда иштирок этаётган аъзоларнинг кўпчилиги томонидан маъқулланган тақдирда, қабул қилинган ҳисобланади. Овозлар тенг бўлиб қолган тақдирда, ишчи комиссия раисининг овози ҳал қилувчи ҳисобланади.

9. Ишчи комиссия котиби томонидан иштирокчи ёки ижрочига, шунингдек мурожаатчига йиғилишдан уч кун олдин ишчи комиссия йиғилиши ҳақида хабар қилинади. Бунда, иштирокчи ёки ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритиш тўғрисидаги масалани кўриб чиқишда иштирокчи ёки ижрочи, шунингдек мурожаатчи иштирок этиш ҳуқуқига эга.

10. Ишчи комиссия мурожаатчи томонидан тақдим этилган ҳужжатларда мазкур Низомнинг 2-бандида назарда тутилган ҳолатлар мавжудлигини ўрганади.

Бунда, тақдим этилган ҳужжатларнинг тўғрилиги ва ҳаққонийлиги учун мурожаатчи жавобгар ҳисобланади.

11. Ишчи комиссия томонидан мазкур Низомнинг 2-бандида назарда тутилган ҳолатлардан бошқа ҳолатлар кўриб чиқилмайди.

12. Ваколатли органнинг иштирокчи ёки ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритиш тўғрисида қарор қабул қилинган кунда ваколатли орган Реестрга киритади.

13. Ваколатли орган томонидан қўйидаги ҳолларда иштирокчи ёки ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритишни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилинади:

муурожаатчининг аризаси ва унга илова қилинган ҳужжатларда иштирокчи ва ижрочини Реестрга киритиш учун мазкур Низомнинг 2-бандида назарда тутилган асослар мавжуд бўлмаса;

муурожаатчи томонидан тақдим этилган ҳужжатларнинг ҳақиқий эмаслиги ёки уларда нотўғри маълумотлар мавжудлиги аниқланганда.

14. Давлат харидлари соҳасидаги шикоятларни кўриб чиқиш бўйича комиссия томонидан ижрочини Реестрга киритиш тўғрисида қарор қабул қилинган тақдирда ваколатли орган қарор қабул қилинган куннинг ўзида мазкур қарор асосида ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритади.

15. Давлат харидлари соҳасидаги шикоятларни кўриб чиқиш бўйича комиссия томонидан ижрочини Реестрга киритиш тўғрисидаги қарор Давлат харидлари соҳасидаги шикоятларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги низомда (рўйхат рақами 3013, 2018 йил 14 май) белгиланган тартибда қабул қилинади.

16. Ваколатли орган томонидан Реестрга киритилган куннинг ўзида инсофсиз ижрочига бу тўғрисида ёзма равишда ёки давлат харидлари электрон тизимидаги шахсий кабинети орқали (шахсий кабинети мавжуд бўлган тақдирда) электрон тарзда хабар берилади.

17. Ваколатли органнинг иштирокчи ёки ижрочи тўғрисидаги маълумотларни Реестрга киритиш тўғрисидаги қароридан норози бўлган иштирокчи ёки ижрочи, шунингдек ғолиб қонунчиликда белгиланган тартибда судга мурожаат қилиш ҳуқуқига эга.

18. Давлат харидлари электрон тизими оператори харид қилиш тартиб-таомиллари яқунлари бўйича белгиланган шартлар асосида давлат буюртмачиси билан шартнома тузишни ва давлат харидларини амалга оширишни рад этган ёки бошқача усулда бўйин товлаган ғолиб тўғрисидаги ахборотни электрон маълумот алмашинуви орқали автоматик тарзда Махсус ахборот порталига (бундан буён матнда Портал деб юритилади) юборади.

Давлат харидлари электрон тизими операторлари томонидан юборилган инсофсиз ижрочилар тўғрисидаги маълумотлар автоматик тарзда Реестрга киритилади.

#### **4-боб. Реестрни юритиш ҳамда инсофсиз ижрочини Реестрдан чиқариш тартиби**

19. Реестр ваколатли орган томонидан Порталда юритилади.

20. Реестрда инсофсиз ижрочилар тўғрисидаги қуйидаги маълумотлар акс эттирилади:

юридик шахснинг номи, жойлашган жойи (почта манзили);

юридик шахснинг раҳбарини ҳамда бенефициар мулкдорининг фамилияси, исми, отасининг исми, яшаш жойи;

жисмоний шахснинг фамилияси, исми, отасининг исми, яшаш жойи (якка тартибдаги тадбиркор ва ўзини ўзи банд қилган шахслар учун);

СТИР (юридик шахслар учун), ЖШШИР (жисмоний шахслар учун);

суднинг, ваколат органнинг, Давлат харидлари соҳасидаги шикоятларни кўриб чиқиш бўйича комиссиясининг қарори санаси ва нусхаси (ғолиб реестрга автоматик тарзда киритилган ҳоллар бундан мустасно);

Реестрга киритиш ва ундан чиқариш санаси ва асоси.

Бунда, жисмоний шахсларнинг паспорт маълумотлари ҳамда юридик шахс муассисларининг, шунингдек жисмоний шахсларнинг яшаш жойи ҳақи-

даги ахборотдан бошқа маълумотлар очик ҳисобланади ҳамда фойдаланувчилар улардан эркин ва бепул танишиб чиқиши ва фойдаланиши мумкин.

21. Инсофсиз ижрочи Реестрга киритилганидан бошлаб икки йил муддат ўтгандан сўнг автоматик тарзда Реестрдан чиқарилади ҳамда шу куннинг ўзида ваколатли орган томонидан иштирокчи, ижрочига ёки голибга ёзма ёки электрон шаклда хабар берилади.

22. Инсофсиз ижрочи суднинг тегишли қарорига кўра Реестрдан чиқарилиши мумкин.

Бунда, суднинг тегишли қарори ваколатли органга келиб тушган кундан эътиборан бир иш кунидан кечиктирмаган муддатда ваколатли орган инсофсиз ижрочини Реестрдан чиқаради.

### **5-боб. Яқуний қоида**

23. Ушбу Низом талабларини бузганликда айбдор бўлган шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**21** Alohida dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida\*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 17-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3600*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ–411-son “Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta‘minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. Alohida dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil hamda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Vazir**

**A. XUDAYAROV**

Toshkent sh.,  
2025-yil 3-yanvar,  
31-son

*Kelishildi:*

*Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari  
va qonuniy manfaatlarini himoya  
qilish bo‘yicha vakil*

**D. KASIMOV**

*2024-yil 24-dekabr*

*O‘zbekiston Savdo-sanoat  
palatasi raisi*

**D. VAXABOV**

*2024-yil 25-dekabr*

---

\* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 18-yanvarda e‘lon qilingan.



O'zbekiston Respublikasi  
sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 3-yanvardagi  
31-son buyrug'iga  
ILOVA

## **Alohida dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM**

Mazkur Nizom alohida dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**ariza beruvchi** — alohida dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun murojaat qiluvchi yuridik shaxs (yoki uning nomidan harakat qiluvchi ishonchli vakil);

**“bioveyver” usuli** — dori preparatining bioekvivalentligini “in vivo” tadqiqotlarsiz baholash jarayoni;

**galen preparatlari** — o'simliklar (ildizi, bargi, guli, po'stlog'i), minerallar va hayvonlar xom ashyosini qayta ishlash yo'li bilan olinadigan dori vositalari;

**dori vositalari** — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

**jenerik dori vositasi** — original dori vositasi kabi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari va xuddi shunday dori shakliga ega, tegishli farmakokinetik tadqiqotlar yordamida uning original dori vositasiga bioekvivalentligi tasdiqlangan dori vositasi;

**referens preparat** — ilk bor ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hamda tibbiyotda qo'llash uchun ruxsat berilgan dori preparati. Kelajakda referens preparat jenerik dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazishda bioekvivalentlik va terapevtik ekvivalentlik tadqiqotlarida faol nazorat preparati sifatida qo'llaniladi.

### **2-bob. Dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz ro'yxatdan o'tkazish**

2. Dori vositalarining klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi qaror “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasining (bundan buyon matnda Markaz deb yuritiladi) Farmakologiya qo'mitasi tavsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat olib boruvchi Ekspertlar kengashi (bundan buyon matnda Ekspertlar kengashi deb yuritiladi) tomonidan qabul qilinadi.

3. Dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 213-son qarori bilan tasdiqlangan Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Quyidagi dori vositalari klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkaziladi:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tkazishda klinik tadqiqotlar va ishlab chiqarish sharoitlari "Zarur ishlab chiqarish amaliyoti — GMP" talablariga muvofiq bo'yicha o'rganishlar o'tkazish talab etilmaydigan dori vositalari ro'yxatiga kiritilgan dori vositalari;

b) mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan xavfsizligi va samaradorligi referens preparatdan qolishmasligi klinik oldi tadqiqotlarida (bioekvivalentlikni o'rganish yuzasidan eksperimental tadqiqotlarda) isbotlangan quyidagi jenerik dori vositalari va galen preparatlari:

sirtga qo'llash uchun ta'sir etuvchi, qitqlovchi, yallig'lanishga qarshi va mahalliy og'riqsizlantiruvchi, antiseptik va mikroblarga qarshi ta'sirga ega (inson organizmiga rezorbtiv (umumiy) ta'sirga ega bo'lmagan) dori vositalari;

ishlab chiqarish texnologiyasining transferi asosida ishlab chiqarilgan dori vositalari;

gaz shaklidagi jenerik dori vositalari;

aynan bir xil konsentratsiyadagi suvli eritma ko'rinishida quloqqa yoki ko'zga tomiziladigan tomchilar shaklidagi jenerik dori vositalari;

xalq tabobatida keng qo'llaniladigan o'simlik xom ashyosidan olinadigan monokomponentli va polikomponentli dori vositalari;

peroral qo'llanadigan tuzli eritmalar, vitaminlar, polivitaminlar va ularning minerallar bilan majmuasi, metabolik jarayonlarni rag'batlantiruvchi dori vositalari;

prebiotik, probiotik va euobiotiklar, surgı vositalari, diareyaga va meteorizmga qarshi dori vositalari;

d) bir ishlab chiqaruvchi tomonidan turli savdo nomlari ostida ishlab chiqilgan, tarkibi bir xil bo'lgan dori vositalari. Bunda, ushbu dori vositalarining kamida bittasi klinik tadqiqotlarning ijobiy natijasi asosida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi kerak;

e) bioekvivalentligi biofarmatsevtik klassifikatsion sistemaga (BKS) asoslangan "bioveyver" usuli yordamida referens preparat bilan qiyoslangan holda isbotlangan bir ta'sir etuvchi moddaga ega bo'lgan, qattiq dori shakliga ega peroral qo'llaniladigan jenerik dori preparatlari (til ostiga va milkka qo'yiladigan hamda ajralib chiqishi modifikatsiyalangan dori vositalari bundan mustasno);

f) xavfsizligi va samaradorligi 20 yil va undan ortiq muddat davomida mahalliy va Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlardagi ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan, shuningdek Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi talablariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan bir ta'sir etuvchi (monopreparat) moddaga ega bo'lgan hamda peroral va parenteral usullarda qo'llaniladigan jenerik dori

vositalari (insulin va uning analoglari hamda biosimilyarlar bundan mustasno). Bunda, mazkur dori vositalarining samaradorligi va xavfsizligini aks ettiruvchi tan olingan ilmiy nashrlardan tayyorlangan adabiyotlar sharhi to'liq hajmda taqdim etilishi lozim.

### **3-bob. Ekspertlar kengashi qarorlari yoki uning a'zolarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish va uni ko'rib chiqish**

5. Ariza beruvchi Ekspertlar kengashi qarorlari hamda uning a'zolarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga yoki bevosita sudga shikoyat qilishga haqli.

6. Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan shikoyat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan mazkur shikoyat kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

7. Shikoyat bilan murojaat qilgan ariza beruvchi shikoyatni ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Bunda, ariza beruvchi shikoyat ko'rib chiqilishidan ikki kun oldin uni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida ogohlantiriladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi shikoyatni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

e'tiroz asossiz bo'lsa, shikoyatni qanoatlantirishni rad etish;

e'tiroz asosli bo'lsa, Ekspertlar kengashiga qabul qilingan qarorni qayta ko'rib chiqish yoki uning a'zolari zimmasiga berilgan shikoyat mohiyati bo'yicha muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklash.

9. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi shikoyat bilan murojaat qilgan ariza beruvchiga o'z qarorini u qabul qilingan kunning o'zida ma'lum qilishi kerak.

### **4-bob. Yakuniy qoida**

10. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**22** **Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi  
namunaviy nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish  
haqida**

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
17-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3451-1*

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentabrdagi O‘RQ–957-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida ta‘lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi va 2024-yil 20-sentabrdagi O‘RQ–963-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-iyundagi 52-2023/B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3451, 2023-yil 14-avgust) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.08.2023-y., 10/23/3451/0593-son) bilan tasdiqlangan Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi namunaviy nizomga ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Vazir**

**B. ZAXIDOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 24-dekabr,  
17-2024/B-son

*Kelishildi:*

**Korrupsiyaga qarshi kurashish  
agentligi direktori**

**A. BURXANOV**

*2024-yil 23-dekabr*

**O‘zbekiston Kasaba uyushmalari  
Federatsiyasi raisi**

**K. RAFIKOV**

*2024-yil 20-dekabr*

*O‘zbekiston Savdo-sanoat  
palatasi raisi*

*D. VAXABOV*

*2024-yil 10-dekabr*

O‘zbekiston Respublikasi  
kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining  
2024-yil 24-dekabrda 17-2024/B-son  
buyrug‘iga  
ILOVA

**Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi  
namunaviy nizomga kiritilayotgan qo‘shimcha  
va o‘zgartirishlar**

1. 2-band “ijtimoiy kelib chiqishi” degan so‘zlardan keyin “qarindoshlarida sudlanganlikning mavjudligi” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

2. 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Tanlov komissiyasi tarkibi tashkilotning xodimlari orasidan kamida besh kishidan iborat va toq sonli tarkibda shakllantiriladi.

Bunda, tashkilot rahbari yoki uning o‘rinbosari Tanlov komissiyasi raisi hamda tashkilotning inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha tarkibiy bo‘linmasi rahbari yoki bunga mas‘ul xodimi Tanlov komissiyasi kotibi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga kelishuv asosida tegishli sohaning malakali mutaxassislari, fuqarolik jamiyati institutlari, oliy ta‘lim tashkilotlari yoki davlat organi va tashkiloti huzuridagi jamoatchilik kengashlarining vakillari ham kiritilishi mumkin.”.

3. 19-banddagi “besh kun oldin” degan so‘zlar “kamida bir hafta oldin” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4. Ilovaning 7 va 8-pozitsiyalaridagi “ta‘lim muassasasining” degan so‘zlar “ta‘lim tashkilotining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**23** “Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli itlarni umumiy bo‘ysunuvchanlik va himoya-qorovul ko‘nikmalari bo‘yicha tayyorlash uchun pullik xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek naslchilik pitomnigida yetishtirilgan va ichki ishlar organlarining ehtiyojidan ortiq bo‘lgan hamda xizmatga yaroqsiz deb topilgan itlarni sotish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil  
17-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3480-1*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 432-son “Vazirlar Mahkamasining “Ichki ishlar organlarining kinologiya xizmatlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 9-sentabrdagi 750-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 602-son “Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli itlarni umumiy bo‘ysunuvchanlik va himoya-qorovul ko‘nikmalari bo‘yicha tayyorlash uchun pullik xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek naslchilik pitomnigida yetishtirilgan va ichki ishlar organlarining ehtiyojidan ortiq bo‘lgan hamda xizmatga yaroqsiz deb topilgan itlarni sotish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 3480, 2023-yil 5-dekabr) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.12.2023-y., 10/23/3480/0922-son) ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Vazir**

**P. BOBOJONOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 17-dekabr,  
700-son

*Kelishildi:*

**Qishloq xo‘jaligi vaziri**

**I. ABDURAXMONOV**

*2024-yil 17-dekabr*

O'zbekiston Respublikasi  
ichki ishlar vazirining 2024-yil 17-dekabrda  
700-son buyrug'iga  
ILOVA

**“Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli itlarni umumiy bo'ysunuvchanlik va himoya-qorovul ko'nikmalari bo'yicha tayyorlash uchun pullik xizmatlar ko'rsatish, shuningdek naslchilik pitomnigida yetishtirilgan va ichki ishlar organlarining ehtiyojidan ortiq bo'lgan hamda xizmatga yaroqsiz deb topilgan itlarni sotish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Buyruqning nomi va 1-bandidagi “tayyorlash uchun” degan so'zlar “tayyorlash, veterinariya davolash-profilaktika hamda laboratoriya-diagnostika ishlarini amalga oshirish va itlarni kinologiya bo'linmalarida vaqtincha saqlash bo'yicha” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. Nizomda:

1) nomi va muqaddimadagi “tayyorlash uchun” degan so'zlar “tayyorlash, veterinariya davolash-profilaktika hamda laboratoriya-diagnostika ishlarini amalga oshirish va itlarni kinologiya bo'linmalarida vaqtincha saqlash bo'yicha” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2) 1-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “ko'nikmalari bo'yicha tayyorlash,” degan so'zlar “tayyorlash, veterinariya davolash-profilaktika hamda laboratoriya-diagnostika ishlarini amalga oshirish va itlarni kinologiya bo'linmalarida vaqtincha saqlash bo'yicha” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “ko'nikmalariga tayyorlash” degan so'zlar “ko'nikmalariga tayyorlash, veterinariya davolash-profilaktika hamda laboratoriya-diagnostika ishlarini amalga oshirish va itlarni kinologiya bo'linmalarida vaqtincha saqlash” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

**“veterinariya bloklari** — kinologiya bo'linmalari hududida tashkil etilgan va veterinariya klinikasi, veterinariya punkti, veterinariya-profilaktika nuqtasi, veterinariya laboratoriyasi, maxsus tekshiruv (rentgen, ultratovush) xonalari, jarrohlik xonasi, statsionar, karantin binosi (xonasi), izolyator, dezinfeksiyalovchi to'siqlarni o'z ichiga olgan inshootlar;

**veterinariya xizmati** — itlarga nisbatan amalga oshiriladigan veterinariya davolash (diagnostik, terapevtik, jarrohlik), profilaktika (aktiv va passiv immunizatsiya-emlash, dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya) va laboratoriya-diagnostika (rentgen, ultratovush, bioximik, mikroskopiya, genetik tekshiruv) ishlari;”;

beshinchi xatboshi yettinchi xatboshi deb hisoblansin;

3) 2-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“2-bob. Kinologiya bo‘linmalarida itlarni umumiy bo‘ysunuvchanlik hamda himoya-qorovul ko‘nikmalariga tayyorlash bo‘yicha pullik xizmat ko‘rsatish”;**

4) 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Buyurtmachi itlarni umumiy bo‘ysunuvchanlik hamda himoya-qorovul ko‘nikmalariga tayyorlash bo‘yicha pullik xizmatlardan foydalanish uchun kinologiya bo‘linmalariga bevosita yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida elektron tarzda murojaat qiladi.”;

5) quyidagi mazmundagi 2<sup>1</sup> va 2<sup>2</sup>-boblar bilan to‘ldirilsin:

**“2<sup>1</sup>-bob. Veterinariya davolash-profilaktika hamda laboratoriya-diagnostika ishlarini amalga oshirish bo‘yicha pullik xizmat ko‘rsatish**

13<sup>1</sup>. Buyurtmachi veterinariya davolash-profilaktika hamda laboratoriya-diagnostika ishlarini amalga oshirish bo‘yicha pullik xizmat ko‘rsatish yuzasidan mazkur Nizomning 4-bandiga muvofiq kinologiya bo‘linmalariga murojaat qiladi.

13<sup>2</sup>. Murojaat kinologiya bo‘linmasi tomonidan qabul qilinadi, ro‘yxatdan o‘tkaziladi va veterinariya xizmati yuzasidan shartnoma tuziladi.

13<sup>3</sup>. Kinologiya bo‘linmalari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga (shartnoma asosida) veterinariya xizmatlari kinologiya bo‘linmalari hududida mavjud yoki yangi barpo etilgan veterinariya bloklarida, shuningdek, buyurtmachilarning murojaatiga ko‘ra ularning turar joyida yoki tegishli hududda amalga oshiriladi.

13<sup>4</sup>. Veterinariya bloklarida kinologiya bo‘linmalarining veterinariya xizmati xodimlari faoliyat ko‘rsatadi.

13<sup>5</sup>. Veterinariya bloklariga qabul qilishda:

itlar klinik ko‘rik va zaruratga ko‘ra laboratoriya-tashxis tekshiruvlaridan o‘tkaziladi;

itlarni saqlash, parvarishlash, oziqlantirish hamda ko‘paytirish masalalari bo‘yicha maslahat va tavsiyalar beriladi;

itlarga buyurtmachining roziligi asosida kasallik holatining og‘irligi darajasidan kelib chiqqan holda izolyatorda davolash muolajalari o‘tkaziladi;

xavfsizlik choralari ko‘rgan holda itlarning sog‘lig‘ini tiklash bo‘yicha veterinariya tadbirlari ko‘rsatiladi.

13<sup>6</sup>. Veterinariya xizmatlari ko‘rsatilayotgan vaqtda buyurtmachilarning itiga ularning harakatlari (harakatsizligi) bilan bog‘liq bo‘lmagan holda zarar yetkazilsa, yetkazilgan zarar kinologiya bo‘linmalari tomonidan qoplanadi.

Bunda buyurtmachilarning itiga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash bilan bog‘liq xarajatlar aybdor shaxsdan regress tartibida undiriladi.

13<sup>7</sup>. Kinologiya bo‘linmalari tomonidan itlarni profilaktika qilish, diagnostika va davolashda sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan vosita va usullar qo‘llanilmaydi.

13<sup>8</sup>. Kinologiya bo‘linmalari veterinariya xizmatini ko‘rsatishda quyidagi huquqlarga ega:



itlarning kasalligini aniqlab, tashxis qo'yish va ularni davolash bilan shug'ullanish;

o'ziga tegishli bo'lgan asbob-uskuna va boshqa jihozlardan foydalanish;

o'ziga tegishli bo'lgan dori vositalaridan foydalanilgan holda veterinariya xizmatlarini ko'rsatish;

shartnomada nazarda tutilgan holda kinologiya bo'linmalari ixtiyorida mavjud bo'lmagan dori vositalari buyurtmachi tomonidan olib kelinishini talab qilish;

itlarni kasallanishdan saqlash maqsadida emlash tadbirlarini o'tkazish (bundan quturish kasalligiga emlash mustasno), shuningdek itlarning egalariga maslahat berish;

xizmat ko'rsatish davomida veterinariya xizmatlari mutaxassislarini jalb etish;

kinologiya bo'linmalarining veterinariya sohasidagi mutaxassislarining O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (bundan buyon matnda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi deb yuritiladi) huzuridagi Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida malakasini oshirish.

13<sup>9</sup>. Kinologiya bo'linmalari:

pullik xizmatdan foydalanish yuzasidan buyurtmachilar murojaatlarini ko'rib chiqishi;

buyurtmachilarga sifatli veterinariya xizmatlarini ko'rsatishi;

yuqumli kasallik mavjudligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda, bu haqida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy bo'linmalariga zudlik bilan xabar berishi hamda kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rishi;

veterinariya bloklarining doimiy faoliyat olib borishini ta'minlashi;

xizmat ko'rsatish davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni qo'shimcha to'lovlarsiz bartaraf etishi;

buyurtmachilarni veterinariya xizmatlari ro'yxati va preyskuranti (narxleri) bilan tanishtirishi;

shartnomada belgilab olingan xizmatlardan tashqari zarur bo'lmagan boshqa xizmatlarni taklif etmasligi va ular uchun haq olmasligi;

davolash uchun izolyatorda olib qolingan hayvonlarni kinologiya bo'linmalariga qarashli xizmat itlaridan alohida saqlashi va xavfsizligini ta'minlashi;

buyurtmachilarga ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari bo'yicha ma'lumot taqdim etishi;

veterinariya xizmati ko'rsatishda faoliyatga aloqador bo'lmagan vaziyatda itning umumiy klinik ahvoli og'irlashganda ko'rilgan choralar to'g'risida buyurtmachilarni o'z vaqtida xabardor qilishi;

epizootiya yuzaga kelgan taqdirda, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy bo'linmalarining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi;

taqdim etilgan it nobud bo'lganda buyurtmachini xabardor qilgan holda

it jasadini Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy bo'linmalariga topshirishi shart.

13<sup>10</sup>. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

kinologiya bo'linmalariga veterinariya xizmatlaridan foydalanish uchun murojaat qilish;

veterinariya xizmati ko'rsatilishi to'g'risida kinologiya bo'linmalari bilan shartnoma tuzish;

veterinariya xizmatlarini veterinariya bloklarida olish;

veterinariya bloklarida yaratilgan mavjud sharoitlar bilan tanishish;

ko'rsatilayotgan veterinariya xizmatlari turlari va preyskuranti (narxi) to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish;

itning holati, kasalligi va o'tkazilgan muolajalar haqida ma'lumot olish;

itning kasalligi holatidan kelib chiqib uni izolyatorda davolashga qoldirish;

belgilangan tartibda shikoyat qilish.

13<sup>11</sup>. Buyurtmachi:

veterinariya bloklariga itni ko'rikdan o'tkazish uchun taqdim etishi;

it o'tkazgan kasalliklar, uning emlanganligi hamda salomatligi bilan bog'liq zarur ma'lumotlarni taqdim etishi;

ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari uchun preyskurant (narx) bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishi;

izolyatorda davolanayotgan itni saqlash va oziqlantirish xarajatlarini qoplashi;

veterinariya xizmati xodimlarining tavsiyalari asosida zoogigiyenik talablarga muvofiq itlarni saqlash va oziqlantirish hamda davolash-profilaktika tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirishi;

veterinariya-sanitariya qoidalariga to'liq rioya etishi shart.

13<sup>12</sup>. Itlarni davolash jarayonida boshqa kasalliklar aniqlanganda, ularni bartaraf etish va sog'lomlashtirish xarajatlari qo'shimcha ravishda buyurtmachi hisobidan amalga oshiriladi.

13<sup>13</sup>. Buyurtmachilar tomonidan veterinariya xizmatlari ko'rsatishdan foydalanish rad etilgan taqdirda, xizmat ko'rsatilmagan qismi uchun to'langan mablag'lar qaytarib beriladi.

13<sup>14</sup>. Zarur hollarda kinologiya bo'linmalari veterinariya xizmati ko'rsatishni Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy bo'linmalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

## **2<sup>2</sup>-bob. Kinologiya bo'linmalarida buyurtmachilarning itlarini vaqtincha saqlash bo'yicha pullik xizmat ko'rsatish**

13<sup>15</sup>. Buyurtmachi itlarini vaqtincha saqlash yuzasidan pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha mazkur Nizomning 4-bandiga muvofiq kinologiya bo'linmalariga murojaat qiladi.

13<sup>16</sup>. Murojaat kinologiya bo'linmasi tomonidan qabul qilinadi, ro'yxatdan o'tkaziladi va veterinariya xizmati yuzasidan shartnoma hamda "qabul qilish va topshirish" dalolatnomasi tuziladi.

13<sup>17</sup>. Itlarni vaqtinchalik saqlash muddati shartnomada belgilanadi.

13<sup>18</sup>. Buyurtmachining ixtiyoriga ko'ra itni zaruriy anjomlari va ozuqalari kinologiya bo'linmalariga taqdim etilishi mumkin.

13<sup>19</sup>. Buyurtmachi kinologiya bo'linmalaridagi vaqtincha saqlash joylarining shart-sharoitlari bilan tanishish huquqiga ega.

13<sup>20</sup>. Kinologiya bo'linmalari xodimlari itlarni vaqtincha saqlash davomida ularni oziqlantirish, sayr qildirish va veterinariya nazoratini amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi.”.

**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг  
вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг  
норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан  
ўтказиш ҳолати тўғрисида  
МАЪЛУМОТИ**

***1. Давлат рўйхатидан ўтказилди:***

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 27-dekabrda 214-son "Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan bino va inshootlarni kapital ta'mirlashni moliyalashtirish va manzilli ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyruq, shuningdek unga o'zgartirishlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi buyrug'i.

***2025-yil 14-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1073-2.***

2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 23-son va Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 26-dekabrda 19-son "O'zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

***2025-yil 14-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3597.***

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 26-dekabrda 321-B-12-son, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26-dekabrda 211-son hamda Soliq qo'mitasining 2024-yil 24-dekabrda 2024-26-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarorga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qarori.

***2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2342-12.***

4. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг 2024 йил 18 декабрда 17-сон, Миллий гвардиясининг 2024 йил 5 декабрда 30-сон, Фавқулodat вазиятлар вазирлигининг 2024 йил 9 декабрда 26-сон, Давлат хавфсизлик хизматининг 2024 йил 15 декабрда 19-сон, Ички ишлар вазирлигининг 2024 йил 7 декабрда 45-ққ-сон ва Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2024 йил 11 декабрда 17-сон "Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида тинчлик ва уруш даврида тиббий кўрикдан ўтказишни ташкил этиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги қарори.

***2025 йил 16 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3147-2.***

5. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 12-dekabrda 18-2024/B-son "Karantinga oid choralar amal qilishi davrida maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim muassasalarining faoliyati to'xtatilganda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va umumta'lim muassasalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalariga yillik

mehnat ta'tili berishning vaqtinchalik tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyruqni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi buyrug'i.

***2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3227-1.***

6. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 12-dekabrda 19-2024/B-son "Karantinga oid choralar amal qilish davrida xodimlarni masofaviy ish usulida, moslashuvchan ish grafigida yoki uyda ishlashga o'tkazishning vaqtinchalik tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyruqni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi buyrug'i.

***2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3228-1.***

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 10-dekabrda 37/16-son "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori.

***2025 yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 916-3.***

8. O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirining 2025-yil 4-yanvarda 276-mh-son "Pochta aloqasida frankirlash mashinasidan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i.

***2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2008-3.***

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 7-yanvarda K-3-son va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 20-son "Metrologiya tekshiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tibbiyot uchun mo'ljallangan o'lchash vositalari va sinash vositalarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorning 2-bandiga o'zgartirish kiritish haqida"gi qarori.

***2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2916-1.***

10. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 12-dekabrda 464-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i.

***2025-yil 15-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3598.***

11. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 6 декабрдаги 200-сон "Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрини шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги буйруғи.

***2025 йил 17 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3599.***

12. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 3-yanvarda 31-son "Alohida dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.

***2025-yil 17-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3600.***

13. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 24-dekabrda 17-2024/B-son "Ishga qabul qilish chog'ida tanlov o'tkazish to'g'risidagi namunaviy nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i.

***2025-йил 17-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3451-1.***

14. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2024-йил 17-dekabrdaги 700-сон "Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli itlarni umumiy bo'ysunuvchanlik va himoya-qorovul ko'nikmalari bo'yicha tayyorlash uchun pullik xizmatlar ko'rsatish, shuningdek naslchilik pitomnigida yetishtirilgan va ichki ishlar organlarining ehtiyojidan ortiq bo'lgan hamda xizmatga yaroqsiz deb topilgan itlarni sotish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyruqqa o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i.

***2025-йил 17-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3480-1.***

**II. Davlat reestridan чиқарилди:**

1. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2001 йил 19 сентябрдаги 107-сон "Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан амалга ошириладиган бино ва иншоотларни капитал таъмирлашни молиялаштириш ва манзилли рўйхатларини шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги буйруғи (рўйхат рақами 1073, 2001 йил 3 октябрь), шунингдек унга киритилган ўзгартиришлар (рўйхат рақами 1073-1, 2004 йил 14 январь).

***2025 йил 14 январда давлат реестридан чиқарилди.***

2. Ўзбекистон Республикаси Ўсимликлар карантини ва ҳимояси агентлиги ҳамда Соғлиқни сақлаш вазириликнинг 2022 йил 12 мартдаги 3 ва 5-сон «Ўзбекистон Республикаси учун карантин аҳамиятига эга бўлган зарарли организмлар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарори (рўйхат рақами 3357, 2022 йил 31 март).

***2025 йил 14 январда давлат реестридан чиқарилди.***

3. Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг 2020 йил 25 мартдаги 8-2020/Б-сон "Карантинга оид чоралар амал қилиши даврида мактабгача таълим ташкилотлари ва умумтаълим муассасаларининг фаолияти тўхтатилганда мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчилари ва умумтаълим муассасалари бошланғич синф ўқувчиларининг ота-оналарига йиллик меҳнат таътили беришнинг вақтинчалик тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги буйруғи (рўйхат рақами 3227, 2020 йил 28 март).

***2025 йил 15 январда давлат реестридан чиқарилди.***

4. Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг 2020 йил 25 мартдаги 9-2020/Б-сон «Карантинга оид чоралар амал қилиш даврида ходимларни масофавий иш усулида, мослашувчан иш графигида ёки уйда ишлашга ўтказишнинг вақтинчалик тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги буйруғи (рўйхат рақами 3228, 2020 йил 28 март).

***2025 йил 15 январда давлат реестридан чиқарилди.***

Мазкур ҳужжатлар қонунчиликка ўзгартириш киритилиши ва/ёки янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниши муносабати билан давлат реестридан чиқарилди.